

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası**

Yakubova Muhabbat Daminovna

**“ALPOMISH” DOSTONIDAGI ONOMASTIK
BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI**

5220100 – Filologiya(o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar: f.f.n. O‘rinboyeva D.

SAMARQAND - 2013

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası**

Yakubova Muhabbat Daminovna

**“ALPOMISH” DOSTONIDAGI ONOMASTIK
BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI**

5220100 – Filologiya(o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar:

O‘rinboyeva D.

Rasmiy taqrizchi:

Begaliyev N.

Malakaviy bitiruv ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2013 yil 28- maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan(9-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof. Abdusaidov A.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan va ____ ball bilan baholangan(____-son bayonnoma).

YaDAK raisi:

prof. Haqqulov I.

A’zolari:

SAMARQAND - 2013

REJA:

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

KIRISH:

O'zbek onomastikasi sohasining o'rganilishi haqida.

1. O'ZBEK XALQ DOSTONLARI VA ONOMASTIK BIRLIKLAR

- a) onomastik birliklarning o'rganilishi;
- b) o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari matnlarining o'rganilishi;
- c) onomastik birliklar va ularning til tizimida tutgan o'rni;

2. "ALPOMISH" DOSTONIDAGI ANTROPONIMLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

- a) antroponimlar haqida tushuncha va uning o'rganilishi;
- b) "Alpomish" dostonidagi antroponimlarning lug'aviy tarkibi va funksional-semantik xususiyatlari;

3. "ALPOMISH" DOSTONIDAGI TOPONIMLAR, GIDRONIMLAR, TEONIMLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

- a) "Alpomish" dostonidagi toponimlarning funksional-semantik xususiyatlar;
- b) "Alpomish" dostonidagi gidronimlarning funksional-semantik xususiyatlari;
- c) "Alpomish" dostonidagi teonimlarning funksional-semantik xususiyatlari;

XULOSA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston keyingi o`n to`qqiz yil ichida madaniy va ma'naviy yuksalish yo`liga chiqib oldi. Jamiyatning barcha sohalarida bo`lgani kabi fan olamida ham tub burilishlar, sifat o`zgarishlari sodir bo`ldi. Ayniqsa, qadimiy an'analarimiz, urf-odatlarimiz bilan birga tiklangan tilimiz o`zbek xalqining katta yutug'i sanaladi. Shu ma'noda o`zbek tilshunosligida xalq tilidagi til birliklarining ifoda imkoniyatlarini o`rganish, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish, tahlil metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan sanaladi. Ma'lumki, o`tgan davr ichida joy nomlari, o`zbek ismlari va etnonimiyasini o`rganish bo`yicha anchagina ishlar amalga oshirildi. Ushbu sohada qilingan ilmiy tadqiqotlarning salmog'i ortib bormoqda. T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do`simov, B.O`rinboyev, N.Oxunov, T.Ernazarov, X.Xolmo`minov, S.Naimov kabi olimlarning tadqiqotlari o`zbek onomastikasi rivojiga qo`shilgan munosib hissadir. Ushbu malakaviy bitiruv ishida "Alpomish" dostonida onomastik birliklar, ya'ni turli davrlarda yuzaga kelgan ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan bebaho xazina, madaniy merosimizni o`rganish o`zbek onomastikasining dolzarb masalalaridan biridir.

Shu jihatdan qaraganda, onomastika sohasini kompleks tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu qator masalalarga aniqlik kiritishga yordam beradi. Jumladan:

- "Alpomish" dostonida onomastik birliklarning ko`lami, uning mazmuni;
- toponimikaning lug'aviy asoslarini o`rganish;
- ularning tarixiy-etimologik tahlilini amalga oshirishga urinish;
- atoqli otlarning o`ziga xosligi muammolarining o`rganilishi;
- doston antroponimikasi va uning tahlili; - toponimikasi; - gidronimikasi, - teonimikasi kabilarning funksional-semantik tahlili.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotdan ko`zlangan maqsad maktab darsliklaridagi toponimlarni kompleks tadqiq etish.

Bu maqsadga erishish uchun tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo`yildi:

- "Alpomish" dostonida onomastik birliklarning ko`lami, uning mazmuni;
- toponimikaning lug'aviy asoslarini o`rganish;
- ularning tarixiy-etimologik tahlilini amalga oshirishga o`rinish;
- atoqli otlarning o`ziga xosligi muammolarining o`rganilishi;
- doston antroponimikasi va uning tahlili; - toponimikasi; - gidronimikasi, - teonimikasi kabilarning funksional-semantik tahlili.

Tadqiqotning manbai va materiallari sifatida, asosan, maktab darsliklari tadqiq obyekti qilib olindi. Tadqiqot manbai tahlili, asosan, tavsifiy metod doirasida olib borildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. toponimlarning lug'aviy asoslari, tarixiy-etimologik tahlili amalga oshirishligi yuzasidan ma'lumotlar yangilandi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Maktab o`qituvchilariga metodik tavsiyalar, uslubiy ishlanmalar yaratishda, oliy o`quv yurtlarida ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar o`tkazishda, ixtisos va tanlanma kurslarni o`qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning joriylanishi. Ishning mavzui va rejasi Samarqand davlat universiteti o`zbek tilshunosligi kafedrasida bakalavrluk malakaviy bitiruv ishi mavzui sifatida tasdiqlangan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 75 sahifani tashkil etadi.

KIRISH

XX asrning 60-70-yillarida o‘zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Masalan: eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, stilistika (uslubshunoslik), nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar. O‘zbek onomastikasi ham o‘sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri sanaladi.

O‘zbek onomastikasi (nomshunosligi) o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug‘atlar, ko‘p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi¹.

Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida bildirilgan quyidagi fikr-mulohazalar ushbu mavzuning dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi: “Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko‘cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o‘zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko‘rib bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko‘rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko‘chalarning nomlarini o‘qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: *Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin* va hokazo. Shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dohiylari bo‘lmish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtimizga qadam qo‘ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan kimsalar edi. Yoki shahardagi aksariyat turarjoy mavzelari “S-1”, “S-2”, “S-15” degan, odamda hech qanday his-tuyg‘u, xotira uyg‘otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinganini eslaylik.

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 168 -бет.

Bularning barchasi zahirida sovet mafkurasiga xos bo'lgan, odamzotni tarixiy xotira, Vatan tuyg'usidan judo qilishga qaratilgan g'arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas.

Holbuki, ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o'n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma'noli, go'zal nomlarni olaylik. *Samarqand, Beshyog'och, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar* darvoza degan nomlar avvalambor o'zining aniq tarixiy-jug'rofiy ma'nosi bilan ajralib turadi.

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi *Pichoqchilik, Charxchilik, Ko'nchilik, Degrezlik, Taqasi, Egarchi, O'qchi, Zargarlik, Parchabof* singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqimizning azaldan o'troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo'lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o'rniga *Mirobod, Rakat, Mingo'rik, Darxonariq, Shayxontohur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa* kabi asl nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintaqa va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz"².

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi.

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar,

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008, 91-93-бетлар.

ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronimiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan *mifonimlar* xayoliy – to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Shulardan biri bo'lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi.

O'zbek nomshunosligida mavjud bo'lgan ishlarning aksariyatida ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotoponim va makrotoponimlar, etnonimlar tahlil qilingan, xolos. Lekin o'zbek tilidagi atoqli otlarning ba'zi tiplari shu kunga qadar deyarli o'rganilgan emas yoki kam tahlil qilingan. Bunday masalalar qatoriga kosmonimlar (astronimlar), mifonimlar, ktematonimlar, agnonimlar, nekronimlar, geonimlar, gemeronimlar, dokumentonimlar, oronimlar, patronimlar, pereytonimlar, xromonimlar, geortonimlar, speleonimlar fitonimlar, ekklezionimlar, ergonimlar, xrematonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, laqab va taxalluslar, atoqli otlarning imlosi, onomastik birliklarning amaliy transkripsiyasi va transliteratsiyasi,

nomshunoslikning amaliy va nazariy muammolari, jumladan onomastik leksikografiya muammolari kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, malakaviy bitiruv ishimizning maqsadi “Alpomish” dostonidagi onomastik birliklarning funksional-semantik xususiyatlarini o‘rganishdir.

Bu esa, bizga quyidagi vazifalarni yuklaydi: - atoqli otlarning o‘ziga xosligi muammolarining o‘rganilishi; - “Alpomish” dostonida onomastik birliklarning ko‘lami, uning mazmuni; - doston antroponimikasi va uning tahlili; - toponimikasi, - gidronimikasi, - teonimikasi kabilarning funksional-semantik tahlili.

1.1. ONOMASTIK BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI

O‘zbek onomastikasi yoki nomshunosligi o‘tgan asrning 60-70-yillarida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida yuzaga keldi. O‘zbek nomshunosligi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, bu sohaning antroponimika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalarida juda barakali ishlar amalga oshirildi. Masalan, o‘zbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroflicha to‘plandi, to‘rtta nomzodlik dissertatsiyasi (E.Begmatov – 1965, G‘.Sattorov – 1990, S.Rahimov – 1998, R.Xudoyberganov - 2007) himoya qilindi, E.Begmatovning “Kishi nomlari imlosi” (1970), “O‘zbek ismlari imlosi” (1972), “O‘zbek ismlari” (1991), “O‘zbek ismlari ma‘nosi” (1998; 2004; 2010), “Ism chiroyi” (1994) nomli kitoblari nashr etildi.

Bu davrda o‘zbek toponimikasi bo‘yicha olib borilgan ishlarning samarasi salmoqli bo‘ldi. Shu kunga qadar o‘zbek toponimikasi bo‘yicha 20 dan ortiq nomzodlik, uchta doktorlik (Z.Do‘simov, S.Qorayev, T.Enazarov) ishi himoya qilindi. O‘zbek toponimikasi bo‘yicha himoya qilingan nomzodlik ishlari Qashqadaryo viloyati (T.Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxondaryo viloyati (Yo.Xo‘jamberdiyev, X.Xolmo‘minov), Samarqand viloyati (T.Rahmatov, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Bo‘riyev), Sirdaryo viloyati (N.Mingboyev), Toshkent viloyati (M.N.Ramazonova), Buxoro viloyati (S.Nayimov, A.Aslonov), Navoiy viloyati (O‘.Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Farg‘ona viloyati (N.Oxunov, S.Gubayeva, J.Latipov), Xorazm viloyati (Z.Do‘simov, A.Otajonova, M.Tillayeva), Shimoliy o‘zbek shevalari toponimiyasi (L.Karimova), Toshkent shahri (Sh.Qodirova) toponimiyasi bo‘yicha yozilgan edi.

O‘zbek toponimikasi muammolari H.Hasanov, S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov kabi olimlarning ishlarida umumiy tarzda ham tahlil qilingan.

O‘zbek tarixiy toponimikasi va antroponimikasi bo‘yicha mamlakatimizda ayrim ishlar qilingan. Masalan, akademik B.Ahmedov, akademik

A.Muhammadjonovning ayrim tarixiy toponimlar etimologiyasiga doir kuzatishlari³, Sh.Kamoliddinning O'rta Osiyodagi qadimgi turkiy toponimiyaga oid ishlari diqqatga sazovor⁴. N.Husanovning XV asr yozma yodgorliklaridagi antroponimlarga, Sh.Yoqubov va B.Bafoyevlarning Alisher Navoiy onomastikasiga, M.Turdibekovning Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarai turk" asari onomastikasiga, I.Xudoynazarovning o'zbek folklori onomastikasiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek nomshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi⁵.

O'zbek nomshunoslari olib borgan keng ko'lamli tadqiqotlar keyingi yillarda o'zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar (S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, L.Karimova, A.Turobov, N.Oxunov, N.Begaliyev, T.Enazarov, N.Husanov, S.Karimov, S.Bo'riyev), risolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.Qilichev), izohli lug'atlar (S.Qorayev, E.Begmatov, Z.Do'simov, X.Egamov, B.O'rinboyev, T.Nafasov, V.Nafasova, O.Holiqov) hamda ko'p sonli ilmiy hamda ilmiy-ommabop maqolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov va boshqalar) bilan boyitdi⁶. Bu sohada, ayniqsa, T.Nafasov, Z.Do'simov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, N.Husanov, T.Enazarov, X.Doniyorov, A.Otajonova, B.O'rinboyev kabi olimlarning hissasi kattadir.

O'zbek nomshunosligining taraqqiyotida onomastikaga oid respublikamizda o'tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarning o'rni kattadir. Masalan, 1974 yilda Buxoro shahrida "O'rta Osiyo onomastikasining dolzarb muammolari" mavzuida butunittifoq ilmiy anjuman o'tkazilgan edi. Bu anjumanda juda ko'plab taniqli olimlar qatori Samarqand shahridan L.I.Royzenzon, H.Berdiyev, R.Qo'ng'urovlar ishtirok etgan edilar. H.Berdiyev B.Yo'ldoshev bilan hamkorlikda bu anjumanda

³ Muhammadjonov A. "Турон" геоними хақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. №2. 12-16-бетлар; Muhammadjonov A. Самарқанднинг тарихий топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 4. 37-42-бетлар; Muhammadjonov A. Марғилон-Марғинон номининг маъноси хақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 5. 39-42-бетлар; Muhammadjonov A. Фарғона номининг маъносига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 6. 7-12-бетлар; Muhammadjonov A. "Кува" ёки "Кубо" топоними ва "Кубод" атамасининг этимологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. № 3. 41-46-бетлар ва бошқалар.

⁴ Камолитдин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: «Шарк», 2006, 192 с.

⁵ Бундай асарлар рўйхати хақида қаранг: Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 168 бет.

⁶ Бундай ишлар рўйхати қуйидаги ишда келтирилган: Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 8-164-бетлар.

«O‘zbek tilida frazeologizmlar tarkibida atoqli otlarning qo‘llanilishi», R.Qo‘ng‘urov esa “Mushtum” satirik jurnalida okkazional ma’noli atoqli otlar” mavzuida ma’ruzalar qilgan edilar. Xuddi shu yillari SamDUda “Onomastika masalalari” nomi bilan bir necha ilmiy to‘plam nashr etilgan⁷, bu sohada ilmiy-tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaygan edi. Masalan, xuddi shu yillari SamDU olimlari poetik onomastika yoki onomastik uslubiyat masalalari bilan maxsus shug‘ullana boshladilar. Taniqli adabiyotshunos olim E.B.Magazannikning “Onomapoetika yoki adabiyotda gapiruvchi nomlar” nomli yirik monografiyasi Toshkentda nashr etilgan edi⁸. Bu olimning shogirdi Yu.Po‘latov esa shu sohada izlanishlar olib borib, badiiy matndagi nomlar tarjimasiga doir qiziqarli risola yaratgan edi⁹. Keyinchalik I.Mirzayev badiiy tarjimada kishi ismlari va geografik nomlarning berilishiga doir ayrim kuzatish ishlari olib bordi¹⁰.

XX asrning 80-90-yillarida Jizzax (1985), Guliston (1987), Qarshi (1989), Navoiy (1993; 1998) shaharlarida “O‘zbekiston onomastikasi” deb nomlangan butunittifoq va respublika ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy anjumanlari o‘tkazilgan, ularning materiallari alohida to‘plamlar sifatida nashr etilgan edi¹¹.

1.2. O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI ASARLARI MATNLARINING O‘RGANILISHI

Ajdodlar tafakkurining ilk mahsuli bo‘lmish xalq og‘zaki ijodi manbalari qadimdan til muammolarini ilmiy mushohada qilishda tayanch manba vazifasini o‘taganligi M.Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk» asarida¹² ham ko‘zga tashlanadi. Shunday ekan, har bir adabiy tilning hozirgi holatini to‘g‘ri belgilash,

⁷ Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск I. – Самарканд: издание СамГУ, 1971, 150 с.; Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск II. – Самарканд: издание СамГУ, 1975, 95 с.; Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск III. – Самарканд: издание СамГУ, 1976, 170 с.

⁸ Магазаник Э.Б. Ономапoeтика или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978, 148 с.

⁹ Пулатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967, 63 бет.

¹⁰ Мирзаев И. Бадий таржимада киши исмлари ва географик номларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. № 5. 70-73-бетлар.

¹¹ Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джиззак, 1985, 55 с.; Ономастика Узбекистана. Материалы конференции (Гулистан, 27-28 мая 1987 г.). – Ташкент, 1987, 92 бет; Ономастика Узбекистана. Материалы конференции (Карши, 14-16 сентября 1989 г.). – Ташкент, 1989, 208 бет; “Жой номлари – халк тили ва маънавиятининг нодир мероси” мавзuidaги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998, 106 бет ва бошқалар.

¹² Қoшғарий М.Девони луғотит турк. Уч томлик. I том. Тошкент, 1960; II том. Тошкент, 1961; III том. Тошкент, 1967.

uning taraqqiyot yo'lini aniqlashda xalq og'zaki ijodi namunalari tilini onomastik nuqtai nazardan puxta o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo xalqlari folklorining til xususiyatlari haqidagi dastlabki fikrlar XIX asr sharqshunos-olimlari tomonidan bildirilgan¹³.

O'zbek tilshunosligida xalq og'zaki ijodi namunalari o'rganish borasida XX asrning 30-40 yillaridan boshlab sezilarli ishlar amalga oshirildi¹⁴. Folklor asarlarini nashrga tayyorlash ishlari boshlab yuborildi¹⁵.

Keyingi yillarda o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari tilning turli sathlari bo'yicha o'rganilganligi ko'zga tashlanadi. Tilshunos olim Sh.Shoadurahmonovning nomzodlik dissertatsiyasi «Ravshan» dostonining badiiy tilini o'rganishga bag'ishlangan¹⁶ bo'lib, unda tasviriy vositalar tahlil etiladi.

Shuningdek, M.Saidov¹⁷, O.Hakimova¹⁸, S.A'zamov¹⁹lar dostonlar tili va uslubi, badiiy mahorat, S.N.Yo'ldosheva²⁰ «Alpomish», I.T.Yormatova²¹ «Go'ro'g'li» sikliga kiruvchi dostonlar poetikasi, Sh.S.Mahmadiyev dostonlar tilida stilistik formula²²lar to'g'risida so'z yuritgan.

¹³ Радлов В.В. Образцы народной литературы северных тюркских племен. Т. I-VII/ -СПб, 1866-1886; Диваев А.А. Этнографические материалы // Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области, т. IV-X. - Ташкент, 1895-1902; Потанин Г.Н. Казак-киргизские и алтайские предания легенды и сказки // Живая старина, вып. II-III. – СПб, 1916.

¹⁴ Buzruk M. O'rta Osiyo va o'zbek adabiyotiga umumiy qarash, birinchi qism. -Tashkent, 1930; Oktabrgacha bo'lgan o'zbek adabiyoti (folklor). -Tashkent: O'zdamnashr, 1935; O'zbek folklori. -Toshkent: O'zdamnashr, 1937.

¹⁵ Fozil Yo'ldosh o'g'li. Malikai ayyor. -Toshkent, 1940; Fozil Yo'ldosh o'g'li. Balogardon. -Toshkent, 1941; Ergash Jumanbulbul o'g'li. Qunduz bilan Jallob. -Toshkent, 1941; Ergash Jumanbulbul o'g'li. Ravshan. -Toshkent, 1941; Фозил Йўлдош ўғли. Зулфизар ва Авазхон. -Тошкент, 1942; Эргаш Жуманбулбул ўғли. Хушкелди. -Тошкент, 1942; Эргаш Жуманбулбул ўғли. Далли -Тошкент, 1942.

¹⁶ Шоабдурахмонов Ш. «Равшан» дostonининг бadiий тили ҳақида: Фил.фан.номз.дис..автореф.- Тошкент, 1949.

¹⁷ Саидов М. Ўзбек дostonчилигида бadiий маҳорат. – Тошкент: Фан, 1969, 232-259-бетлар.

¹⁸ Ҳақимова О. «Ойсулув» дostonининг тили ва стилига доир дastлабки кузатишлар // Самарқанд давлат университети ўқитувчи ва профессорларининг 1966 йилги XXIV илмий конференцияси материаллари (18-22 апрель 1967 йил). Филол. серияси. - Самарқанд, 1969, 114-117 -бетлар.

¹⁹ Аъзамов С. «Кунтуғмиш» дostonининг тили ҳақида. СамДПИ профессор-ўқитувчиларининг VI илмий-назарий конференцияси тезислари. – Самарқанд, 1972, 57-58 – бетлар.

²⁰ Юлдашева С.Н. Поэтика узбекского народного героического эпоса «Алпамыш»: Автореф. дис... канд. фил.наук. -Ташкент, 1984.

²¹ Ёрматова И.Т. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси поэтикаси: Фил.фан.док.дис.автореф. -Тошкент, 1994.

²² Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар: Фил.фан.номз.дис..автореф.- Тошкент, 2007.

Tilshunos R.Rasulovning nomzodlik dissertatsiyasi «Alpomish» dostonidagi soʻzlarning sintaktik aloqasini yoritishga bagʻishlangan²³.

Oʻzbek tilshunosligida xalq ogʻzaki ijodi asarlari leksik qatlamini oʻrganishga ham katta ahamiyat berilganligi A.Gʻafforova²⁴, A.Ishayev²⁵, B.Choriyev²⁶, S.Tursunov²⁷, Z.Xolmanova²⁸, J.Xolmurodova²⁹, A.Rahimov³⁰, A.Xalikov³¹ dissertatsiyalarida koʻzga tashlanadi.

Tilshunoslikda «Alpomish», «Ravshan», «Rustamxon», «Orzigul», «Oysuluv», «Yakka Ahmad», «Toʻlgʻonoy», «Xurshidoy», «Oychinor» kabi dostonlarning soʻzligi tuzilgan³² boʻlib, unda adabiy til tarkibiga kirmay qolgan soʻzlarga izohlangan.

A.Turobov³³ esa, «Alpomish» dostonidagi shevaga xos soʻzlarning izohli lugʻatini yaratdi. T.Mirzayev, J.Eshonqul, S.Fidokor³⁴lar oʻz lugʻatida «Alpomish» dostonidagi frazeologizmlar va ayrim soʻzlarning izohini keltirganlar.

B.Yoʻldoshev, D.Oʻrinboyevalar tomonidan nashr ettirilgan chastotali izohli frazeologik lugʻat oʻzbek xalq dostonlari («Alpomish», «Ravshan», «Rustam») matni asosida yaratilgan boʻlib, unda mingga yaqin frazeologizmlar, ularning

²³ Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпамыш»: Автореф.дис...канд.фил.наук.-Ташкент, 1975.

²⁴ Ишаев И. Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1970, №5, 56-63 бетлар.

²⁵ Чориев Б. Ўзбек халқ дostonларида қўлланган синонимлар // ТошДПИ илмий асарлари. № 167. – Тошкент, 1976, 52-56 бетлар.

²⁶ Гаффарова А. Образование синонимов в дастане «Рустамхон» // Вопросы языка и литературы. Учен. Записки Ленинабад. Госпедиститута. №22. Ленинабад, 1964, 122-145 с.

²⁷ Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф.дис...канд.фил.наук.-Ташкент, 1990, 19 с.

²⁸ Холманова З. «Шайбонийхон» дostonи лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида): Фил.фан.номз...дис. автореф. -Тошкент, 1999.

²⁹ Холмуродова Ж.И. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Фил.фан.номз...дис. автореф. -Тошкент, 2000.

³⁰ Раҳимов А.С.Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили: Фил.фан.номз.дис..автореф.-Самарқанд, 2002, 27 бет.

³¹ Холиков А. «Ўрўғлининг туғилиши» дostonи тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Фил.фан.номз...дис. автореф.-Тошкент, 2009.

³² Ўринбоева Д. Ўзбек халқ дostonларининг қисқача изоҳли луғати. –Самарқанд, 2004, 80 бет.

³³ Тurobov А. «Алпомиш» дostonидаги шеваларга хос сўзларнинг изоҳли луғати. – Самарқанд, 2006, 50 бет.

³⁴ Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» дostonининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2007, 161 бет.

variantlari hamda dostonlar matnida qo'llanish darajasi (chastotasi) va izohi keltirilgan³⁵. Ammo dostonlar tili onomastik jihatdan o'rganilmagan.

1.3. ONOMASTIK BIRLIKLAR VA ULARNING TIL TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Ma'lumki, bizni o'rab olgan borliq, moddiy olam nihoyatda murakkab, boy, serqirra, rang-barang bo'lib, uni tashkil qilgan narsa va hodisalar mohiyati, holati, shakli, ko'rinishi va vazifasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. "*Turdosh ot*" termini bilan yuritiluvchi so'zlar mana shu xususiyatlardan bir qisminigina, ot kategoriyasiga kiruvchilarnigina ifodalashga xizmat qiladi. Kishilar o'zlari yashab turgan hududdagi daryolar, ko'llar, buloqlarni va ularni tashkil etuvchi har bir daryo, har bir ko'l, har bir buloqni bir-biridan farqlash uchun ularni alohida-alohida nomlar bilan atagan. Masalan: *Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Nil, Oyko'l, Baykal ko'li, Toshbuloq, Qo'tirbuloq, Marjonbuloq, Zirabuloq* kabilar. Bundan ko'rinadiki, atoqli otlar narsa va hodisalarni, obyektlarni yakkalab, donalab atash zaruriyati tufayli yuzaga keladi. Bunday zaruriyat bo'lmaganda esa kishilar muloqot jarayonida ularga berilgan umumiy nomdan foydalanish bilan kifoyalanishadi. Masalan: *Mamlakatimizda daryolar ko'p. Bizning viloyatimizda ko'llar, buloqlar anchagina bor* kabi.

Shuni unutmaslik zarurki, insoniyat tafakkurining gultoji uning umumlashtirish qobiliyatidir. Agar shunday umumlashtirish qobiliyati bo'lmaganda, har qanday til million, milliardlab so'zlardan, grammatik vositalardan iborat supermurakkab va tushunarsiz hodisaga aylanardi. Demak, narsa va hodisalarga yakkalab, donalab atoqli ot bilan nomlash o'ziga xos zaruriy ehtiyoj va qonuniyat natijasi sanaladi.

Tilshunoslikda atoqli otlarga nisbatan turdosh otlar ancha mukammal va atroflicha o'rganilgan. Atoqli otlarga nisbatan bunday munosabat quyidagi sabablar bilan bog'liq:

³⁵ Йўлдошев Б., Ўринбоева Д. Ўзбек халқ дostonларининг частотали изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, 2008, 99 бет.

a) atoqli otlar turdosh otlar kabi lugʻaviy maʼnoga ega emas, tushuncha ifodalamaydi, deb tushunish hamda atoqli otni toʻlaqonli soʻz emas, balki ramziy, shartli belgi deb hisoblash;

b) atoqli otning til birligi sifatidagi oʻrnini, nutqdagi funksional xususiyatini yetarli baholamay olmaslik;

v) tildagi atoqli otlarning barcha koʻrinishlari yetarli va toʻliq oʻrganilmaganligi;

g) atoqli ot materiallarining kam tadqiq qilinib, munosib ravishda ilmiy baholanmaganligi;

d) atoqli otlarni tadqiq etishning murakkabligi, uning bir qator fanlar (tarix, geografiya, etnografiya, arxeologiya kabilar) bilan bogʻliqligi;

e) atoqli otlarni tadqiq qilishning nazariy asoslari fanda yetarli ravishda belgilanmaganligi va boshqalar.

Maʼlum bir tildagi atoqli otlarning barcha mavjud tiplari va hajmini aniqlab olish, oʻsha tildagi atoqli otlar doirasini, ular tarqalgan onomastik maydonni bilib olishga koʻmaklashadi. Bu muammo onomastikaga oid tadqiqotlarda “onomastik koʻlam” nomi bilan yuritiladi. Dastlab onomastikaga oid ilmiy adabiyotlarda bu termin “toponimik koʻlam” sifatida V.N.Toporov tomonidan qoʻllangan edi. Keyinchalik A.V.Superanskaya oʻz ishlarida “onomastik koʻlam”, “toponimik koʻlam” terminlaridan keng foydalandi. A.V.Superanskaya oʻz ishida “onomastik koʻlam” atamasining onomastika ilmi uchun juda qulayligini “toponimik koʻlam” misolida quyidagicha izohlaydi: “Bu termin nomlar va nomlangan obyektlarning maʼlum makonda joylashishi, yaʼni ularning bir-biridan alohida holda mavjud boʻlishi va bu ularning yer yuzi, shuningdek, undan tashqarida ekanligini koʻzda tutishi jihatidan ham qulaydir”³⁶. Bundan koʻrinadiki, “onomastik koʻlam” deyilganda biror konkret tildagi atoqli otlarning umumiy majmui, yigʻindisi tushuniladi. A.V.Superanskayaning fikriga koʻra, “onomastik koʻlam bu muayyan

³⁶ Б.Йўлдошев. Узбек ономастикаси масалалари. -Самарканд, 2011, 83-бет.

bir xalq tilida real mavjud hamda taxminiy va xayoliy obyektlarni nomlash uchun qoʻllanadigan atoqli otlar yigʻindisidir”³⁷.

Agar biz ana shu taʼrifdan kelib chiqib, oʻzbek onomastikasiga murojaat qiladigan boʻlsak, oʻzbek tilining onomastik koʻlamini shu tildagi barcha atoqli ot tiplari, koʻrinishlarining majmui tashkil qiladi³⁸.

“Onomastik koʻlam” tushunchasi tor va keng maʼnolarga ega. Negaki, har bir tilning onomastik koʻlamini tashkil qiluvchi kichik koʻlamlar va koʻlamchalar mavjud. Shu sababli olimlar tilning umumiy onomastik koʻlamini superkoʻlam (eng katta koʻlam) deb nomlamoqdalar³⁹. Shundan kelib chiqib, oʻzbek tili onomastikasining (superkoʻlamning) quyidagi koʻlamlarini chizmada ifodalash mumkin:

Oʻzbek tilining onomastik koʻlami

Superkoʻlam (eng yirik koʻlam)

Oʻzbek tilidagi barcha atoqli
otlar majmui



Makrokoʻlam (yirik koʻlam)	Mikrokoʻlam (kichik koʻlam)	Boshqa tip koʻlamchalar:
antroponimiya, toponimiya, zoonimiya	oykonim, kosmonim, agroonim va boshq.	astionim, agoroonim va b.



Konkret onomastik
birliklar: *Tursunboy*,
Dilorom, *Qarshi*,
Sirdaryo, *Qorabogʻ* kabilar.

³⁷ Теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1986, 9-с.

³⁸ Бегматов Э., Авлокулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 3. 20-бет.

³⁹ Бегматов Э., Авлокулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 3. 20-бет.

Onomastik ko‘lamning yuqorida keltirilgan tasnifi shartli xarakterga ega. Chunki tilning onomastik tizimini tashkil etadigan turli tip atoqli otlarning o‘zaro aloqalari ham, ularni ifoda etuvchi jarayonlar ham ko‘p qirrali va murakkabdir. Masalan, konkret onomastik birliklarning har biri (masalan: *Jizzax*, *Samarqand*, *Ishtixon* – oykonim; *Oqdaryo*, *Zarafshon*, *Qorasuv* – gidronim, *Azimbek*, *Behzod*, *Gulbahor* – antroponim, *Cho‘lpon*, *Zuxal* – kosmonim kabilar) tilning super onomastik ko‘lami bilan uni tashkil etuvchi atoqli ot tipi sifatida bevosita bog‘lanadi hamda uning tarkibiga kiradi. Shu bilan birga bu birliklar super onomastik ko‘lam bilan birga o‘zi mansub bo‘lgan makro va mikro onomastik ko‘lamlar orqali ham bog‘lanadi, negaki bu kichik ko‘lamlar mohiyatan super onomastik ko‘lamga mansubdir.

Har qanday tilning onomastik tizimi, jumladan o‘zbek tilining ham onomastik tizimi miqdoran g‘oyat ko‘p qirrali, hajman ulkan, nominativ-funksional xususiyatiga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi, shu bilan birga, bir-biri bilan muayyan bog‘liqlik xususiyatiga egadir. Tilning leksik boyligini konkret lug‘aviy birliklar tashkil etganidek, tilning onomastik fondini onomastik leksika tarkibiga kiruvchi konkret atoqli otlar tashkil etadi. Onomastik birlik deyilganda aslida konkret atoqli ot nazarda tutiladi.

Ozarbayjon olimi A.Gurbanov ozarbayjon tilining onomastik birliklar (“vohidlar”)i qatoriga antroponimlar, etnonimlar, toponimlar, gidronimlar, zoonimlar, kosmonimlar, ktematonimlarni kiritgan edi. Hatto A.Gurbanov onomastik birliklar tilning mustaqil birligi bo‘lgani uchun, ularni o‘rganuvchi onomokalogiya (yoki onomastika) ham xuddi leksikologiya, semasiologiya kabi tilshunoslikning mustaqil sohasi deb hisoblagan edi. Onomastik birlikda quyidagi uchta xususiyat namoyon bo‘ladi: a) “onomastik birlik” termini biror yakka atoqli otni ifodalab keladi: *Muhabbat* (ism), *Go‘zal* (ism), *Dang‘ara* (toponim), *Beshkent* (toponim), *Mushtariy* (yulduz nomi), “*Mushtum*” (jurnal nomi, ideonim) kabilar; b) onomastik birlik nominativ-funksional xususiyatiga ko‘ra biror guruhga birlashuvchi nomlar majmuini ifodalaydi: toponimlar, zoonimlar, kosmonimlar,

urbonimlar kabi; v) onomastik birlik onomastika doirasida umuman atoqli ot tushunchasini anglatadi.

Umuman, onomastik birliklarni belgilash, tadqiq qilish darajasi milliy tillar tilshunosligida har xil saviyadadir. Shuni aniq namoyon qilish maqsadida E.Begmatov, Ya.Avloqulov o'z onomastik ko'lam haqidagi ikkinchi maqolalarida 47 ta onomastik birlik nomining 27 muallif va ilmiy to'plamda qanday qayd qilinganligini ko'rsatish maqsadida ikkita jadval keltirganlar⁴⁰. Mana shu jadvalda ko'rsatilgan 22 ta onomastik makroko'lam materiallari o'zbek tili misolida ma'lum darajada o'rganilgan, xolos⁴¹. Lekin onomastik ko'lamlarning aksariyati o'zbek tilida ixcham va yaxlit termin sifatida o'z nomiga ega emas. Bu masalalarni tadqiq etish o'zbek nomshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

1-BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Xullas, o'zbek tilining onomastik ko'lamini nihoyatda murakkab va keng hajmli tushuncha sanaladi. O'zbek tilidagi barcha makroko'lam, mikroko'lam va ko'lamchalarga kiruvchi atoqli ot materiallarini sinchiklab to'plash, ularning nominativ, motivatsion, funksional xususiyatlarini tadqiq qilish o'zbek nomshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Bunday keng ko'lamli tadqiqot onomastika sohasi uchun faqat nazariy emas, balki ulkan amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday ilmiy ishning natijalari tilimiz lug'at boyligining g'oyat murakkab va serqirraligini namoyish qiladi, tabiiy-jug'rofiy obyektlarni nomlash ishini ilmiy asoslarda olib borishga yaqindan yordam beradi, o'zbek xalqi tarixi, madaniyati, ma'naviyati hamda tilining teran ildizlarini chuqurroq anglab yetishimiz uchun boy material manbai bo'lib xizmat qiladi.

⁴⁰ Бегматов Э., Авлокулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг макроқўлами таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 5. 35-36-бетлар.

⁴¹ Бу ҳақда қаранг: Бегматов Э., Авлокулов Я. Ўзбек ономастикасининг микроқўлами // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. № 1. 55-60-бетлар.

II. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI ANTROPONIMLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Antroponimlar haqida tushuncha va uning o‘rganilishi.

Ma’lumki, *antroponim* (yunoncha: *antropos* - *antropos* + *onoma*-*atoqli ot*) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri⁴². Ma’lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi *antroponimiya* deb yuritiladi. Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastika (nomshunoslik)ning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limidir.

O‘zbek antroponimlarini ilmiy asosda to‘plash va o‘rganish ishlari XIX asr oxiri-XX asr boshlarida boshlangan edi. Dastlab Ye.T.Smirnov (1899), keyinchalik N.S.Likoshin (1916) va boshqa rus geografiya jamiyati Turkiston bo‘limining a‘zolari (V.F.Oshanin, A.Samoylovich kabilar) o‘zbekcha ismlarni to‘plash va ularni ruscha transliteratsiyada ifodalash masalalari bilan shug‘ullanganlar. N.Ostroumov (1910), A.Samoylovich (1911), S.Oldenburg (1928), V.Ya.Nalivkin, M.Nalivkina (1897) kabilarning ishlarida o‘zbekcha ismlar va laqablarning etimologiyasi, etnografiyasiga oid ayrim masalalar o‘rganilgan edi. N.S.Maliskiy esa Toshkent shahridagi mahalliy aholi ismlari, urf-odati masalalari bilan shug‘ullangan (1928). S.Ibrohimov, M.Rahmonlar esa o‘zbekcha ismlar va familiyalarning imlosiga doir kuzatishlar olib borganlar (1935).

O‘zbekcha ismlarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish 1960 yillardan boshlangan. Xuddi shu davrda D.Abdurahmonov (1960), O‘.Nosirov (1965), F.Abdullayev (1960, 1961), M.Shamsiyeva (1962), A.Ishayev (1961), X.Doniyorov (1960) kabi olimlarning o‘zbek antroponimikasiga doir ayrim ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari e’lon qilingan edi.

O‘zbek antroponimikasining asoschisi, hech shubhasiz, E.A.Begmatov sanaladi. U 1962-1965 yillar davomida o‘zbek antroponimiyasi bo‘yicha juda boy

⁴² Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 13-бет.

material to'pladi va antroponimlarning lingvistik, ekstralingvistik xususiyatlari, ismlar, laqablar, taxalluslar, familiyalar, otaismmlarning leksikasi, strukturasi, grammatik xususiyatlari bo'yicha qator salmoqli maqolalar e'lon qildi. Shu asosda bu olim 1965 yilda "O'zbek tili antroponimikasi" degan mavzuda nomzodlik ishini himoya qilgan edi⁴³. Shundan keyin E.Begmatovning ismshunoslikka oid "Nomlar va odamlar" (1966), "Kishi nomlari imlosi" (1970), "O'zbek ismlari imlosi" (1972), «Literaturnyye imena i familii uzbekskix avtorov v russkoy transkripsii» (1981), "O'zbek ismlari" (1992, 2000, 2007), "Ism chiroyi" (1994) kabi juda ko'plab asarlari nashr etilgan.

O'zbek antroponimlarining semantikasi va etimologiyasi masalalarini Ya.Menajiyev, X.Azamatov, D.Abdurahmonov va E.Begmatovlar "Ismingizning ma'nosi nima?" nomli risolasida amaliy jihatdan hal etishga intildilar⁴⁴. O'zbekcha ismlarning ruscha yozilishi, imlosi muammolariga bag'ishlangan S.Ibrohimov (1961, 1967), N.Mamatov (1958), F.Kamolov, R.Jumaniyozov, Ya.Pinxasov, T.Mirzayev, E.Begmatov (1962) kabi olimlarning maqolalari matbuot sahifalarida e'lon qilingan edi. E.Begmatovning "Kishi nomlari imlosi" (Toshkent, 1970), "O'zbek ismlari imlosi" (Toshkent, 1972), «Literaturnyye imena i familii uzbekskix avtorov v russkoy transkripsii» (Tashkent, 1981) kabi asarlari ismshunoslikning ana shunday amaliy masalalariga bag'ishlanganligi bilan e'tiborlidir.

XX asrning 70-yillarida o'zbek nomshunosligi mustaqil soha sifatida shakllanishi bilan uning tarkibidagi antroponimika (ismshunoslik)ka oid tadqiqotlar ko'lami ham kengaydi. Shu davrdan boshlab o'zbek antroponimiyasi xilma-xil yo'nalishda o'rganiladigan bo'ldi. Masalan, G.F.Blagova (1963, 1970), A.S.Tolstova (1961), Q.Karimov (1962, 1967), E.Begmatov (1984, 1985) kabi olimlarning tadqiqotlari tarixiy yozma yodgorliklarda qo'llanilgan antroponimlar tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, E.Begmatov (1981, 1984), R.Qo'ng'urov (1964,

⁴³ Begmatov Э.А. Антропонимика узбекского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. –Ташкент, 1965, 28 с.

⁴⁴ Менажиев Я., Азаматов Х., Абдурахмонов Д., Бегматов Э. Исмнингизнинг маъноси нима? – Тошкент: Фан, 1968, 100 бет.

1966), A.Jumayev (1985), G'.Sattorov (1985) singari olimlarning ilmiy kuzatishlari antroponimlarning yasalihi, o'zlashma antroponimlar strukturasi, ismlarning grammatik va semantik xususiyatlari tahliliga oid edi.

Mamlakatimizda bajarilgan nomshunoslikka oid ishlarning ayrimlari antroposistemalarning qo'llanilish xususiyatlari, antroponimik seriyalarning hududlarda tarqalish chastotasini aniqlashga bag'ishlangan edi. Bu jihatdan L.I.Royzenzon, E.B.Magazanik (1971), L.I.Royzenzon, A.Isayev (1971), L.I.Royzenzon, A.Boboxo'jayev (1978), R.Rahimov (1978), T.S.Yeroxina, M.N.Ramazonova (1978), V.B.Suzanovich (1978), V.A.Nikonov (1967, 1973, 1977) kabi olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim. E.Begmatov (1972), V.A.Nikonov (1972), L.V.Danilova (1976) kabi olimlarning izlanishlari esa o'zbek antroponimlarida jins tushunchasining ifodalanish usullari (polyarizasiya) tahliliga bag'ishlangan edi.

Antroponimlarning uslubiy xususiyatlari X.Doniyorov (1965), X.Doniyorov, B.Yo'ldoshev (1985), B.Yo'ldoshev, X.Usmonov (1985), E.Qilichev (1978; 1982), U.Qosimov (1980; 1995) singari olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan edi. O'zbek tilshunosligida kishi ismlari, ayniqsa folklor asarlarida qo'llangan antroponimlar sotsiolingvistik va funksional-semantik yo'nalishda tadqiq etilgan ishlar paydo bo'ldi. Bu o'rinda D.Abdurahmonov, H.Bektemirov (1967), S.Yo'ldosheva (1974, 1975), B.Fayzullayev, S.Tursunov (1985), A.Ishayev (1973), I.Xudoynazarov (1998) kabi olimlarning ilmiy izlanishlari alohida ajralib turadi. Keyinchalik I.Xudoynazarov folklor antroponimiyasiga doir nomzodlik ishini ham himoya qildi⁴⁵.

O'zbek dialektal antroponimiyasini o'rganish bo'yicha o'zbek nomshunosligida dastlabki qadamlar tashlandi. Bu o'rinda H.Doniyorov (1960, 1975, 1979)ning ishlarini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga O.Madrahimov, F.Abdullayev, Z.Do'simovlar Xorazm shevalari, A.Ishayev, Y.Ibrohimov kabi

⁴⁵ Худойназаров И.И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул дostonлари асосида). –Тошкент, 1998, 24 бет.

olimlar Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari antroponimiyasini tadqiq etishga oid qator ishlarni amalga oshirganlar. O'zbek antroponimlari orasidagi o'zlashma qatlam, undagi forsha-arabcha, ruscha ismlar tahlili E.Begmatov (1965, 1986, 1994), S.I.Zinin (1972), N.A.Sharopov (1985) singari olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. O'zbek tilidagi laqablarning o'ziga xos funksional-lisoniy xususiyatlariga bag'ishlab E.Begmatov (1965), E.Qilichev (1982), Y.Ibrohimov (1986), B.Yo'ldoshev (2010) kabi olimlar ilmiy maqolalar e'lon qilganlar. O'zbek antroponimik tizimining tarkibiy qismi bo'lgan taxalluslar, ularning qo'llanish xususiyatlari, turlari, matn tarkibidagi vazifasi kabi masalalarga oid B.Qoriyev (1966, 1967), Yo.Is'hoqov (1968)larning ilmiy maqolalari yaratilgan⁴⁶. Keyinchalik bu muammoga bag'ishlab T.Qorayev, R.Vohidovlarning risolalari e'lon qilindi⁴⁷.

XX asrning 90-yillariga kelib o'zbek antroponimiyasida tarixiy nomshunoslik yoki tarixiy antroponimiya masalalari maxsus o'rganildi. Masalan, Sh.Yoqubov "Navoiy asarlari onomastikasi" mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi, undan oldin B.Bafoev "Navoiy asarlari leksikasi" nomli monografiyasida Navoiy asarlaridagi kishi ismlari va geografik nomlarni semantik va statistik jihatdan tahlil qilgan edi⁴⁸.

"Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"ning 4-tomida Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan barcha kishi nomlari, geografik, astronomik va boshqa nomlar, Alisher Navoiy ijodida uchragan asar nomlarining to'la ro'yxati berilgan⁴⁹.

Bu davrda badiiy asarlarda qo'llangan antroponimlarning uslubiy xususiyatlari, ularning tarjimai bilan bog'liq masalalar ham o'rganila boshlandi.

⁴⁶ Ўзбек антропонимикасига доир юкорида таъкидланган барча ишлар рўйхати куйидаги библиографияда келтирилган: Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 96-124-бетлар.

⁴⁷ Қораев Т., Воҳидов Р. Адабий тахаллуслар ҳақида. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978, 60 бет; Қораев Т., Воҳидов Р. Тахаллуслар. – Тошкент: Фан, 1979, 68 бет.

⁴⁸ Ёкубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. – Тошкент, 1994, 3-20-бетлар; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983, 37-44-бетлар.

⁴⁹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. Тўрт томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1985, 268-343-бетлар.

Masalan, Yu.Po'latovning "Badiiy asarda nomlar tarjimasi" nomli risolasi e'lon qilindi⁵⁰.

O'zbek antroponimikasining yana bir muammosi poetik yoki badiiy antroponimika masalalari bilan bog'liq. Ya'ni badiiy asarlarda qo'llangan kishi ismlari, umuman, atoqli otlar faqat nominativ funksiyani emas, balki bir qancha funksional-uslubiy xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Mana shu masala keyinchalik o'zbek antroponimikasida maxsus o'rganildi. Masalan, SamDUda E.B.Magazanik shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi⁵¹, keyinchalik monografiya nashr ettirdi. Bu ishda antroponimlarning lingvistik kategoriya sifatidagi tabiati, onomastilistika va uning rus adabiyotshunosligida o'rganilish darajasi masalalari o'rganilgan. Olim o'z tadqiqotida badiiy asarlarda qo'llangan antroponimlarni juda keng kontekstda olib qaraydi, badiiy asar syujeti, konfliktini namoyon etishda kishi ismlarining o'рни masalasini asosli yoritadi. Masalan, olimning talqiniga ko'ra, A.S.Pushkin asarlarida qahramon familiyasi bilan ismi o'zaro fonetik jihatdan ohangdoshlik xususiyatiga ega: *Yev-gen-iy O-neg-in* kabi. Xuddiy shunday fonetik ohangdoshlik M.Yu.Lermontov qahramonlarining familiyasi va ismiga ham xosdir: *YevgENiy ArbENin* kabi⁵².

Mustaqillik yillarida o'zbek antroponimikasiga oid tadqiqotlar doirasi yana ham kengaydi. Masalan, S.Rahimov Xorazm vohasi misolida mintaqaviy (regional) antroponimiya masalalariga doir kuzatish ishlari olib bordi⁵³, shu asosda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi⁵⁴. N.Husanov XV asr o'zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etib, ikki qismdan iborat monografiya yaratdi⁵⁵ va shu mavzuda doktorlik

⁵⁰ Пулатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967, 68 бет.

⁵¹ Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Имя и подтекст. – Самарканд, 1967, 24 с.

⁵² Магазаник Э.Б. Ономапозитика, или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978, 79-80 с.

⁵³ Рахимов С.М. Хоразм минтакавий антропонимларининг баъзи бир фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 1. 64-66-бетлар; Рахимов С.М. Хоразм минтакавий антропонимиясига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 5. 39-41-бетлар ва бошқалар.

⁵⁴ Рахимов С.М. Хоразм минтакавий антропонимияси. – Тошкент, 1998, 27 бет.

⁵⁵ Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996, 126 бет; Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари

dissertatsiyasini himoya qildi⁵⁶. M.Tillayeva Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqini “Avesto” asari onomastikasi bilan qiyosiy yo’nalishda olib borib, yaxshi natijalarga erishdi⁵⁷. Olimaning xulosasiga ko’ra, “Avesto”da uchraydigan kishi nomlari nafaqat butun eroniy, balki turkiy, somiy xalqlar antroponimikasiga ta’sir qilgan. Shuning uchun bugungi o’zbek ismlari orasida *Jamshid*, *Isfandiyor* kabi bir qancha avestoviy antroponimlar yoki “Avesto” ta’sirida yuzaga kelgan kishi nomlarini uchratamiz⁵⁸.

R.Xudoyberganov o’zbek antroponimiyasi tizimidagi variantdorlik xususiyatlari (*Reyim // Rahim, Reyimbay // Rahimboy, Sharifa // Sherifa* kabi)ni tadqiq etib, bir necha ilmiy maqolalar e’lon qildi⁵⁹, keyinchalik nomzodlik ishini himoya qildi⁶⁰. Bundan tashkari, antroponimik lug’atlarda kishi ismlari, laqablar va taxalluslar izohlanadi. Antroponimik lug’atlarning yaratilishida prof. E.Begmatovning hissasi katta. Chunki olimning “Kishi nomlari imlosi” (1970), “O’zbek ismlari imlosi” (1972), «Literaturnyye imena i familii uzbekskix avtorov v russkoy transkripsii» (hammuallif: U.Bahromova, 1981), “Ism chiroyi” (1994) kabi bir qator asarlarida erkaklar ismi va ayollar ismi ro’yxati ilova tarzida keltirilgan edi. Shu kunga qadar e’lon qilingan antroponimik lug’atlarga quyidagilarni kiritish mumkin: 1.1. *Menajiyev Ya., Azamatov X., Abdurahmonov D., Begmatov E. Ismingizning ma’nosi nima? – Toshkent: Fan, 1968, 100-bet.* Bu lug’at 1964 yilda nashr etilgan “Ismingizning ma’nosi nima?” asarining qayta ishlangan, to’ldirilgan ikkinchi nashridir. Asarning “So’z boshi” qismi (4-30-betlar)da kishi nomlarining kelib chiqishi, nom qo’yish odatlari va usullari haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Ishning asosiy qismi “Ismlarning izohli lug’ati” (31-99-betlar)dan

тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1997, 134 бет.

⁵⁶ Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент, 1998, 66 бет.

⁵⁷ Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида). – Тошкент, 2006, 26 бет.

⁵⁸ Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида). – Тошкент, 2006, 11-бет..

⁵⁹ Худойберганов Р. Ўзбек исмларида вариантдорлик кўринишлари // Тил ва адабиёт таълими, 2006, № 2. 27-29-бетлар; Худойберганов Р. Ономастик параллеллар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, № 5. 83-86-бетлар ва бошқалар.

⁶⁰ Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги. – Тошкент, 2008, 26 бет.

iborat. Bu qismda kishi ismlarining qaysi tildan o'zlashganligi ko'rsatilib, ularning ma'nosi qisqa izohlangan. Lug'atdan namuna:

Maqsum // Maqsuma – arab. taqsim qilingan, ulashilgan (60-bet).

Nazokat – arab. ozodalik, soflik, poklik (65-bet) kabilar.

1.2. *Begmatov E. O'zbek ismlari. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991, 208-bet.* Bu kitobda 13 mingga yaqin o'zbekcha ismlar jamlangan. Ular yosh ota-onalarga ism tanlashga yordam beribgina qolmay, kishilarga hujjat yozib beradigan, davlat tili (o'zbek tili)da ish yuritadigan mahkamalar xodimlariga ismlarni imlo jihatdan to'g'ri yozishda qo'l keladi. Asar "Tahririyatdan" (3-7-betlar), "Lug'atning tuzilishi" (8-12-betlar), "O'zbekcha ismlar imlosiga oid qaydlar" (13-18-betlar), "Erkaklar ismi" (19-126-betlar), "Ayollar ismi" (127-188-betlar), "Davlat tili va ism-familiya tanlash huquqi" (189-199-betlar) qismlaridan iborat. Bu lug'atda erkaklar va ayollar ismlarining oddiy ro'yxati keltirilgan, ya'ni bu ismlarning ma'nosi izohlanmagan. Lug'atdan namuna:

Erkaklar ismi:

G'aniboy

G'anisher

G'ulomjon

Habibulla

Ayollar ismi:

Zilola

Mastona

Muhayyo

Ozoda kabilar.

1.3. *Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi. Z-nashr. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2010, 608-bet.* O'zbek ismlari nihoyatda rang-barang bo'lib, ular mazmunan boy va tarixiy xususiyatga ega. Bu lug'atda o'zbek xalqi orasida qo'yilib kelinayotgan 14600 ga yaqin ismlar jamlangan. Lug'atning asosiy maqsadi ismlarning ma'nosini ko'rsatish hamda ota-onalarga yangi tug'ilgan farzandlari uchun o'zlariga ma'qul bo'lgan ismlarni tanlashga yordam berishdan iboratdir. Shu bilan birga bu lug'at o'zbek ismlarining kirillisa va lotin yozuvida yozilishida har bir kishiga, qolaversa, rasmiy idora xodimlariga ko'mak berib, bu borada qo'llanma vazifasini bajarib kelmoqda. Lug'at "Nashriyotdan" (3-4-betlar), "Lug'atning tarkibi va tuzilishi" (5-

6-betlar), “Alloh ismlari” (7-11-betlar), “Ismlar lug’ati” (12-582-betlar), “Ismlar tarkibida doimo takror holda keluvchi ba’zi so’zlar ma’nosi” (582-586-betlar), “O’zbek ismlari etnografiyasi” (587-594-betlar), “Ism va familiyalar tanlashning ayrim muammolari” (595-604-betlar), “Foydalanilgan adabiyotlar” (605-bet) qismlarini o’z ichiga oladi. Kitob oxirida uning muallifi E.A.Begmatovning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqidagi qisqacha ma’lumotlar ilova qilingan (606-bet). Lug’atdan namuna:

Uyg’un, Uyg’un (o’z.) – kelishgan, kelishimli; kutilgan, orzu qilingan (442-bet).

Xiromon, Xiromon (ft.-o’z.) – chiroyli bo’yli, bo’yi-basti kelishgan, xushqad; nozik, latif (462-bet).

Xolbeka, Xolbeka (ft.-o’z.) – badanida xol bilan tug’ilgan, beklar avlodiga mansub qiz (463-bet) kabilar.

2.2. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI ANTROPONIMLARNING LUG’AVIY TARKIBI VA FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

O’zbek antroponimikasi bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar XX asrning 80-yillariga kelib, uning tarkibida turkiy qatlamni o’rganishga e’tibor berildi. Masalan, G’.Sattorov “O’zbek ismlarining turkiy qatlami” mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi⁶¹. Bu olimning shu mavzuga doir bir necha maqolalari ham e’lon qilindi. Bu ishlarda quyidagi haqqoniy xulosalarga kelingan:

“O’zbek antroponimiyasining milliy o’ziga xosligini ikki lisoniy material ta’minlaydi. Bular: tub turkiy nomlar va o’zbekcha ismlardir. Milliy-lisoniy ruh, ayniqsa o’zbekcha nomlarni ijod qilishda yorqin namoyon bo’ladi.

Tub turkiy qatlamga mansub nomlarning aksariyati appelyativ ma’nosi aniq sezilib turgan nomlardir. Shunga qaramasdan ismlarning bu qatlamida ma’nosiga ko’ra uch xil nomlarni uchratish mumkin: 1) ma’nosi aniq sezilib turuvchi nomlar;

⁶¹ Сатторов Ф.Х. Ўзбек исмларининг туркий қатлами. – Тошкент, 1990, 19 бет.

2) ma'nosi hozirda qorong'ilashgan ismlar; 3) o'lik ma'noli nomlar. Aksariyat o'zbekcha ismlar birinchi va ikkinchi guruhga mansubdir.

Turkiy qatlamga mansub nomlarni leksik-semantik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin: 1) ism-bag'ishlovlar; 2) nom-izohlar; 3) ism-tilaklar..."⁶². Shuni inobatga olish lozimki, turkiyshunoslikda kishi ismlari tarkibida umumturkiy qatlamni tadqiq etish ancha qadimiy tarixga ega. Jumladan, boshqird olimi A.G.Shayxulov tatar va boshqird ismlarida turkiy qatlam tahliliga oid nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilgan (1978), keyinchalik uning xuddi shu mavzuga oid o'quv qo'llanmasi nashr ettirgan edi⁶³. V.U.Maxpirov esa "Devonu lug'atit turk" asaridagi kishi ismlariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan⁶⁴. Xuddi shunday kuzatishlar o'zbek ismshunosligida ham olib borilgan edi⁶⁵.

Atoqli otlar bir marta nomlangan predmetlardan bittasini ajratish uchun qayta nomlangan ikkilamchi nomlardir. Atoqli otlar bilan ob'ektiv olamdagi narsalar o'rtasidagi aloqa so'zlovchi tomonidan o'rnatiladi. Agar ma'lum bir atoqli ot so'zlovchi tomonidan muayyan bir obyektga bog'lanmasa, u hech narsa bildirmaydi.

"Alpomish" dostonidagi atoqli otlarni ma'nosiga ko'ra ikki xil nomlarni uchratish mumkin:

1. Ma'nosi aniq sezilib turuvchi nomlar. Bunda atoqli otlarning ma'nosi aniq sezilib turadi. Masalan: Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' **Qo'ng'irot** elida **Dobonbiy** degan o'tdi. **Dobonbiydan Alpinbiy** degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini **Boybo'ri** qo'ydi, kichkinasining otini **Boysari** qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari — ikkovi katta bo'ldi.

⁶² Сатторов Ф.Х. Ўзбек исмлирининг туркий қатлами. – Тошкент, 1990, 18-бет.

⁶³ Шайхулов А.Г. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения. Учебное пособие. – Уфа: Изд. Башкирского университета, 1982, 72 с.

⁶⁴ Махпиров В.У. Собственные имена в памятнике XI в. «Девону лугатит турк» Махмуда Кашгарского. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1981, 24 с.

⁶⁵ Йўлдошева Д. "Девону лугатит турк"да антропонимларнинг қўлланиши ҳақида // Маҳмуд Кошғарийнинг "Девону лугатит турк" асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002, 101-103-бетлар.

Boysari boy edi, Boybo'ri esa shoy edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo'ldi (Alpomish,15-bet).

2. Ma'nosi hozirda qorong'ilashgan ismlar. Atoqli otlarning ma'nosi hozirgi kunga kelib bir oz xiralashgan, ma'no anglahilishi qiyin bo'ladi. Masalan: Qalmoqshohning *Tovka* degan qizi bor edi.(254-bet). Alpomish aytdi: — o'g'rining piri hazrati *Joltong* deguchi edi, hazrati Joltonga sirina qolgin (264-bet).

2-BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Ko'rinadiki, o'zbek antroponimikasining erishgan yutuqlari juda salmoqli, lekin bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, qator muammolar ham bor:

1. O'zbek ismlarining imlo lug'ati, izohli lug'ati, o'quv lug'atini tayyorlash va ularni hozirgi zamon talablariga ko'ra nashr ettirish lozim.

2. O'zbek antroponimlari tarkibida o'zlashma qatlamni, eng qadimgi sug'diy, mo'g'ul, uyg'ur, hind, fors-tojik, arab va rus baynalminal qatlamlarni maxsus o'rganish talab qilinadi va hokazo.

3. Ma'lumki, *antroponim* (yunoncha: *antropos* - *antropos* + *onoma*-*atoqli ot*) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biridir. Ma'lum bir tilda mavjud bo'lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi *antroponimiya* deb yuritiladi. Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastika (nomshunoslik)ning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo'lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limidir.

“Alpomish” dostonidagi atoqli otlarni ma'nosiga ko'ra ikki xil nomlarni uchratish mumkin:

1. Ma'nosi aniq sezilib turuvchi nomlar.

2. Ma'nosi hozirda qorong'ilashgan ismlar.

III. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI TOPONIMLAR, GIDRONIM, TEONIMLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

3.1. “ALPOMISH” DOSTONIDA TOPONIMLARNING FUNKSIONAL- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ma'lumki, onomastik birliklar orasida eng ko'p o'rganilgani toponimlardir. Toponimlar asosan apellyativlar asosida hosil bo'ladi. *Apellyativ* lotincha *appellativum* – *turdosh ot* so'zidan olingan bo'lib, atoqli otga qarama-qarshi qo'yiluvchi, atoqli ot yasash uchun lisoniy baza bo'luvchi turdosh ot va boshqa til leksemalaridir⁶⁶.

Toponimlarda xalqning o'tmishi, urf-odatlar, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o'z aksini topgan bo'ladi. Shunga binoan toponimiya muayya til lug'at boyligining muhim tarkibiy qismi, o'tmish voqyealari darakchisi sanaladi.

O'zbek toponimikasini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan. O'tgan davr mobaynida o'zbek toponimikasini o'rganish bo'yicha juda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar orasida taniqli geograf olim H.Hasanovning “O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan” nomli monografiyasi alohida o'rin tutadi. Bu asarda geografik nomlar – toponimlarning tarixi, ularning xilma-xilligi va shakllanish qonuniyatlari qisqacha bayon etilgan hamda toponimika fani to'g'risida qisqacha tushuncha berilgan. Asarda ta'kidlanishicha, “joy nomlariga qarab qadimiy savdo yo'llari, qabila va tillarning tarqalishi, eski qal'a va manzillarning o'rinlari, suv va dovonlarning hosiyatlari, foydali qazilmalar, cho'llarda quduqlarning bor-yo'qligi, joyning o'simlik, hayvonot va iqlimiy xususiyatlari, hunar-kasb, tarixiy voqyealar, afsona-rivoyatlar va boshqa xil ma'lumotlarni bilim olamizki, bular hammasi xalq xo'jaligi, madaniyatimiz tarixi uchun juda muhimdir”⁶⁷. Asarning oxirida qisqacha toponimik lug'at (45-58-

⁶⁶ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 16-бет.

⁶⁷ Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. - Тошкент: Фан, 1965, 37-бет.

betlar) va tarixiy-geografik nomlar izohoti (59-80-betlar)ning berilishi uning ilmiy-amaliy qimmatini yanada oshirgan.

T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do'simov, B.O'rinboyev, T.Rahmatov, J.Latipov, T.Enazarov, N.Oxunov, S.Nayimov kabi olimlarning say'i harakatlari bilan Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, qolaversa, vatanimizning barcha hududlaridagi toponimlar to'plandi, ularning lisoniy xususiyatlari, tarixi, etimologiyasiga oid muhim ilmiy kuzatishlar amalga oshirildi.

O'zbek toponimiyasiga oid dastlabki lisoniy monografik ish T.Nafasov tomonidan bajarilgan edi⁶⁸. Mazkur ishda Qashqadaryo viloyati hududidagi toponimlarning nomlanish asoslari, etimologiyasi, ularning struktural-grammatik tuzilishi va yasalishi masalalari keng va atroflicha tadqiq etilgan edi. Olim keyinchalik faqat Qashqadaryo viloyati toponimlarini o'rganish bilan kifoyalanib qolmay, janubiy O'zbekiston toponimlarining etnolingvistik tahlilini amalga oshirdi⁶⁹, O'zbekiston toponimlarining izohli lug'atini nashr ettirdi⁷⁰. Mustaqillik yillarida prof.T.Nafasov toponimika sohasida yana ham shijoat bilan mehnat qilmoqda, olimning "O'zbek nomnomasi" (1993), "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati" (2007), "Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari"(2008), "Qashqadaryo qishloqnomasi" (2009), "Chiroqchinoma" (2010) kabi bir qancha yirik tadqiqotlari xuddi shu yillarda nashr etildi. 2008 yilda prof. T.Nafasov tavalludining 70 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi, ana shu sana munosabati bilan o'tkazilgan ilmiy anjumanda olimning nomshunoslik sohasidagi serqirra faoliyatiga munosib baho berilgan, uning asarlari bibliografiyasi e'lon qilingan edi⁷¹.

⁶⁸ Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968, 24 с.

⁶⁹ Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985, 84 бет; Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган. – Тошкент: Фан, 1989, 100 бет.

⁷⁰ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988, 290 бет.

⁷¹ Қаранг: Номшунос олим (проф.Т.Нафасовнинг илмий-педагогик фаолияти ҳақида). – Қарши: ҚаршиДУ нашри, 2008, 256 бет.

O'zbekiston hududidagi toponimlarning tarixiy-ilmiy tahlilida taniqli geograf olim S.Qorayevning izlanishlari ham alohida o'rin tutadi⁷². Bu ishlarda O'zbekiston hududidagi tarixiy va zamonaviy toponimlar qiyosiy-tarixiy yo'nalishda chuqur tahlil qilingan. Olimning doktorlik dissertatsiyasi esa O'zbekiston oykonimlari tahliliga bag'ishlangan edi⁷³. S.Qorayev toponimik lug'atlar tuzish, nomshunoslikka doir ilmiy-ommabop risolalar, maqolalar yaratish sohasida ham ibratli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Uning bu sohadagi serqirra faoliyatiga doir ma'lumotlar quyidagi ishning bibliografiya qismida mavjud⁷⁴.

Xorazm vohasi toponimlarining ilmiy-lingvistik tahlilida prof.Z.Do'simovning xizmati kattadir. Olimning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari⁷⁵, monografiyasi⁷⁶ xuddi shu mavzuga bag'ishlangan edi. Keyinchalik A.Otajonova Xorazm etnotoponimlarining lug'aviy asoslari, M.Tillayeva esa Xorazm onomastikasining "Avesto" bilan qiyosi mavzulariga oid qiziqarli ishlarni amalga oshirdilar⁷⁷. O'.Rajabov esa Xorazm vohasi materiallari asosida toponimik aniqlagich (indikator)larning funksional-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan nomzodlik ishini himoya qildi⁷⁸.

Shuningdek, Yo.Xo'jamberdiyev Surxondaryo viloyati, S.Nayimov esa Buxoro viloyati toponimlarini o'rganish bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirdilar⁷⁹. N.Oxunovning nomzodlik ishi esa Qo'qon gruppasi tumanlarining toponimlarini o'rganishga bag'ishlangan edi⁸⁰.

⁷² Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана. – Ташкент, 1969, 25 с; Караев С.К. Топонимия Узбекистана (социолингвистический аспект). – Ташкент, Фан, 1991, 132 с.

⁷³ Караев С.К. Ойконимия Узбекистана (историко-географическое исследование формирования названий населенных пунктов республики). Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. – Ташкент, 1998, 50 с.

⁷⁴ Караев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005, 223-238-бетлар.

⁷⁵ Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма. – Ташкент, 1970, 24 с; Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма. – Ташкент, 1986, 48 с.

⁷⁶ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985, 136 бет.

⁷⁷ Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. – Тошкент, 1997, 26 бет; Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи ("Авесто" ономастикасига қиёслаш асосида). – Тошкент, 2006, 26 бет.

⁷⁸ Ражабов Ў.Х. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2009, 22 бет.

⁷⁹ Хужамбердиев Я. Историко-этимологическое исследование топонимии Сурхандарьинской области. – Ташкент, 1973, 25 с; Найимов С. Ойконимы Бухарской области. – Ташкент, 1984, 24 с.

⁸⁰ Охуннов Н. Топонимия Кокандской группы районов. – Ташкент, 1978, 23 с.

O'zbek toponimikasida bajarilgan ayrim tadqiqotlar alohida tuman yoki shahar mikrotoponimlari tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan e'tiborga molik. Chunki toponimik ob'ekt doirasi qanchalik tor doirada belgilansa, olingan natijalar, ilmiy xulosalar shunchalik asosli bo'ladi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda T.Rahmatov, J.Latipov, X.Xolmo'minov, O'.Oripov, A.Aslonov, S.Bo'riyev kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari e'tiborga molik⁸¹. A.Turobov esa Samarqand viloyati materiallari misolida etnonim va etnooykonimlarning lisoniy tahlili bilan jiddiy shug'ullandi⁸². O.Begimov toponimlardagi o'zlashma qatlamni lisoniy tadqiq etishga oid nomzodlik ishini himoya qildi⁸³. X.Bo'riyeva esa Toshkent shahrining XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy toponimiyasi muammolarini tadqiq etdi⁸⁴.

O'zbekistonda toponimik tadqiqotlar ko'lamining kengayishida serg'ayrat olim T.Enazarovning ham alohida ulushi bor. Olimning nomzodlik ishi Shahrisabz hududi joy nomlarining tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, doktorlik dissertasiyasi toponimlarning lug'aviy asoslari va etimologik tadqiq muammolarini o'z ichiga qamrab olgan edi⁸⁵. Mamlakatimizda toponimikaga doir monografik tadqiqotlar, risolalar, o'quv qo'llanmalari yaratishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda S.Qorayevning "Toponimika – joy nomlari haqidagi fan" (1980), "Toshkent toponimlari" (1991), "Toponimika" (2006), M.Mamedovning "Xalq nomlari joy nomlarida" (1981), L.Karimovanning "O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi" (1982), E.Begmatovning "Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi" (1998), T.Enazarovning "O'zbekiston toponimikasi" nomli maxsus kursni o'qitish

⁸¹ Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей. – Москва, 1973, 28 с; Латипов Дж. Топонимия города Маргелана и его окрестностей. – Ташкент, 1975, 26 с; Холмуминов Х. Микропонимия Байсунского района и его окрестностей. – Ташкент, 1993, 24 с; Орипов Ў. Нурота тумани макро ва микропонимларининг лисоний тахлили. – Тошкент, 2003, 22 бет; Аслонов А.С. Шофиркон тумани микропонимиясининг лингвистик тахлили. – Тошкент, 2005, 21 бет; Бўриев С.Н. Ургут тумани микропонимларининг лексик-семантик тахлили. – Тошкент, 2010, 23 бет.

⁸² Турабов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг тахлили. – Тошкент, 1999, 22 бет.

⁸³ Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашма қатлами. – Тошкент, 1999, 27 бет.

⁸⁴ Бўриева Х.А. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент, 2007, 25 бет.

⁸⁵ Эназаров Т.Ж. Шахрисабз ҳудуди жой номларининг тарихий-қийсий тадқиқи. – Тошкент, 1993, 21 бет; Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. – Тошкент, 2006, 56 бет.

metodikasi” (1999), “Toponimlar etimologik tadqiqining ilmiy-nazariy va amaliy-usuliy asoslari“ (2001), Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi” (2002), “O‘zbekistondagi ba’zi toponimlarning etimologik talqini” (2004), “Nomshunoslik masalalari” (2010), N.Oxunovning “Joylar va nomlar” (1986), “Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari” (1989), A.Otajonovning “Xorazm etnotoponimlari” (1997), Z.Do’simov va M.Tillayevalarning “Joy nomlarining siri” (2001), “Toponimika asoslari” (2002), A.Turobovning “Samarqand etnonim va etnooykonimlari” (2004), T.Qurbonov, M.Xudoyberdiyevlarning “Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari” (2006), S.Karimov, S.Bo’riyevlarning “O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida” (2006), B.Qilichevning “Buxoro viloyati toponimlari” (2008), N.Begaliyevning “Samarqand toponimiyasi” (2010) kabi bir qator ishlarni alohida ta’kidlash lozim.

Umuman olganda, O‘zbekistonda onomastik birliklar orasida eng ko’p o’rganilgani joy nomlari – toponimlar bo’lib, kelgusida bunday tadqiqotlar yanada kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi lozim. Shu asosda O‘zbekiston toponimlarining xaritasi, mukammal ko’p tomlik izohli lug’atlar yaratilishi kerak. Bu sohada ham ishlar amalga oshirilgan. Toponim lug’atlarda joy nomlari, geografik nomlar, qisman suv inshootlari nomlari (gidronimlar) izohlanadi, ularning adabiy-orfografik jihatdan me’yoriy ko’rinishlari qayd qilinadi. O‘zbek lug’atshunosligida toponimik lug’atlarning juda ko’p turlari yaratilgan. Shuning uchun biz bu o’rinda bunday lug’atlarning ayrimlari haqida ma’lumotlar keltirish bilan cheklanamiz.

2.1. *Do’simov Z., Egamov H. Joy nomlarining qisqacha izohli lug’ati. – Toshkent: O’qituvchi, 1977, 174- bem.*

2.2. *Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978, 203- bem.* Bu lug’at S.Qorayevning “Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?” (Toshkent, O‘zbekiston, 1970, 190-bet.) nomli lug’atining to’ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashridir. Lug’atda joy nomlarini o’rganadigan toponimika fani haqida qisqacha tushuncha berilgan. Mamlakatimizdagi ko’pgina toponimlar, ya’ni

geografik nomlarning kelib chiqishi – etimologiyasi bayon qilingan; ayrim toponimlarning birinchi marta qaysi tarixiy manbada tilga olinganligi ko'rsatilgan, shuningdek urug'-qabilalar nomlari bilan atalgan toponimlar – etnotoponimlar alohida qayd etilgan. Asar "Avtordan" (3-5-betlar), "Toponimika haqida tushuncha" (6-23-betlar), "Lug'at" (24-189-betlar), "Toponimikaga oid terminlar" (190-197-betlar), "Qisqartmalar" (198-203-betlar) qismlarini o'z ichiga oladi. Lug'atdan namuna:

Toshkechik – qishloq. Andijon viloyati Izboskan, Xo'jaobod tumanlari. Daryoning shu yeridan kechib o'tsa bo'lishiga ishora (124-bet).

To'g'onbuloq – Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi buloq. Buloq etagi to'g'on qurib to'silgani uchun shunday nom olgan (131-bet) kabilar.

2.3. *Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati (Janubiy O'zbekiston hududlari materiallari asosida). – Toshkent: O'qituvchi, 1988, 288-bet.*

2.4. *O'rinboyev B. Jizzax toponimlarining ta'biri. – Samarqand, 2007, 80-bet.* Bu lug'at dastlab "Jizzax viloyati toponimlari" nomi bilan 1992 yilda Jizzaxda e'lon qilingan edi. Asarda mustaqillik sharofati bilan Jizzax viloyat toponimlarida ro'y bergan o'zgarishlar inobatga olinib, ularning ta'biri (ma'nosi)ni izohlashga harakat qilingan. Asar "Kirish" (3-6-betlar), "Lug'at" (7-77-betlar), "Adabiyotlar" (78-79-betlar) qismlaridan iborat. Lug'atdan namuna:

Arishli – Jizzax, Forish tumanlaridagi qishloq. Qangli qabilasining tarkibida arishli degan urug' nomi bilan atalgan (9-bet).

Ashshakkeldi – Forish tumanidagi qishloq. Ug'uzlarda ashak – etak, past, quyi demakdir. Demak, toponim etakdan kelganlar qishlog'i degan ma'nodadir (10-bet) kabilar.

2.5. *O'rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlari izohi). – Samarqand: Zarafshon, 2003, 281-bet.* Bu lug'at dastlab "Samarqand viloyat toponimlarining izohi" nomi bilan nashr etilgan edi (Samarqand: SamDChTI nashri, 1997, 202-bet). Asar "Muqaddima" (3-11-betlar)

va “Lug’at” (12-280-betlar) qismlarini o’z ichiga oladi. “Muqaddima” qismida viloyat toponimlarining o’ziga xos xususiyatlari, uning tarixiy ildizlari haqida so’z yuritilgan hamda lug’atning tuzilishi, tarkibi haqida ma’lumot berilgan. Lug’atdan namuna:

Boshcho’rash - Payriq tumanidagi qishloq. Zarafshon vodiysidagi o’zbek qipchoqlarning bir urug’i cho’rash deb atalgan. Etnonim oykonimga o’tgan. Lotin: *Boshcho’rash* (40-bet).

Jabi – Jomboy tumanidagi qishloq. Jabi yobu – yobi – yabu – yabo shaklida qo’llaniladi. Jabi (yobi) o’zbek millati tarkibiga kirgan qadimiy elat, qabila. Ular Zarafshon vodiysida yashaganlar. Paxtachi tumanidagi Niyoz jobi, Eshmat jobi nomlari ham shu o’zakdan. Lotin: *Jabi* (70-bet) kabilar.

2.6. *Qorayev S. O’zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 240-bet. Asar “So’zboshi” (3-4-betlar), “Toshkent shahri toponimlari” (5-41-betlar), “Andijon viloyati toponimlari” (42-51-betlar), “Buxoro viloyati toponimlari” (52-65-betlar), “Jizzax viloyati toponimlari” (66-78-betlar), “Navoiy viloyati toponimlari” (79-90-betlar), “Namangan viloyati toponimlari” (91-99-betlar), “Samarqand viloyati toponimlari” (100-121-betlar), “Sirdaryo viloyati toponimlari” (122-124-betlar), “Surxondaryo viloyati toponimlari” (125-134-betlar), “Toshkent viloyati toponimlari” (135-155-betlar), “Farg’ona viloyati toponimlari” (156-163-betlar), “Xorazm viloyati toponimlari” (164-176-betlar), “Qashqadaryo viloyati toponimlari” (177-188-betlar), “Qoraqalpog’iston toponimlari” (189-200-betlar), “Etnonimlar ma’nosi” (201-209-betlar), “Toponimikaning kodlari” (210-221-betlar), “Xotima” (222-223-betlar), “Adabiyotlar ro’yxati” (223-238-betlar) qismlarini o’z ichiga oladi. Bu asarda Toshkent shahri, har bir viloyat va Qoraqalpog’iston hududining geografik joylashuvi, toponimlarining o’ziga xos xususiyatlari qisqacha yoritilib, shu hududga oid toponimlarning qisqacha lug’ati keltirilgan. Lug’atdan namuna:*

Buvayda – qishloq. Buvayda tumani markazi. Shoh Jamolning singlisi *Bibi Xuvaydo* nomi bilan atalgan deyishadi. Qo’qon xonligi arxivida *Bibi Ubayda* shaklida tilga olingan (159-bet).

Shirinlar – qishloq. Yangibozor tumani. *Shirin* – o’zbeklar tarkibidagi urug’ (175-bet) kabilar.

2.7. *O’rinboyev B., Xoliqov O. Maktab toponimik lug’ati. – Samarqand, 2004, 92- bet.* Bu asarda V-IX sinflar ona tili va adabiyot darsliklarida uchraydigan joy nomlari to’planib, ular alifbo tartibida keltirilgan, ularning ma’nosi imkoniyat darajasida izohlangan. Asar “Kirish” (3-6-betlar), “Lug’at” (7-88-betlar), “Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati” (89-91-betlar) qismlaridan iborat. Lug’atdan namuna:

Dehqonobod (P, 82; 1U, 9) – tuman va qishloq. Toponim *deh +qon +obod* qismlaridan iborat bo’lib, u tojikcha *deh – qishloq, qon – qoon - hoqon, ya’ni qishloq hokimi* demakdir.

Dehqonobod – dehqonlar o’zlashtirib, obod qilgan joydagi qishloq ma’nosidadir (33-bet).

Kattaqo’rg’on (1, 96; P, 83) – shahar. Toponim *katta* va *qo’rg’on* so’zlaridan tarkib topgan bo’lib, u *katta shahar, katta qal’a; tepalikdagi shahar, tepadagi istehkom* degan ma’nodadir (41-bet) kabilar.

2.8. *Nafasov T., Nafasova V. O’zbek tili toponimlarining o’quv izohli lug’ati (maktab o’quvchilari, kollej va lisey talabalari uchun). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007, 88-bet.* Asar “Toponimlar – xalq ijodi, til mulki, tarix ko’zgusi” deb nomlanuvchi “Kirish” (4-6-betlar), “Lug’atning tuzilishi” (7-9-betlar), “Lug’at” (10-81-betlar) qismlaridan iborat. Bu lug’at birinchi o’quv toponimik lug’at sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Lug’atdan namuna:

Batosh – qishloq. O’zbek xalqining *batosh* qabila-urug’i vakillari bunyod qilgan qishloq (13-bet).

Degrez – mahalla. *Degrez* (f-t) qozon quyuvchi. *Degrez* qozon, tovoq kabi uy-ro'zg'or buyumlarini quyuvchi temirchi. Degrezlik bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar mahallasi (20-bet) kabilar.

2.9. *Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi (Qashqadaryo viloyati qishloqlari nomining tadqiqi).* – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2009, 432-bet. Bu asarda asosan Qashqadaryo viloyatidagi 1500 dan ortiq zamonaviy shahar, qishloq, mahalla nomlari tahlil qilingan. Asar “So'zboshi” (3-8-betlar), “Qishloq nomlari – ijtimoiy ehtiyoj mahsuli” deb nomlangan “Kirish” (8-36-betlar), “Qishloq nomlari talqini” deb nomlanuvchi “Lug'at” (37-415-betlar), “Adabiyotlar ro'yxati” (416-427-betlar) qismlaridan iborat. Kitob oxirida shoir Xolmuhammad Hasanning “Qashqadaryo” deb nomlangan qasidasi (429-430-betlar) ham o'rin olgan. Lug'atdan namuna:

Sherali // Sherali - G'uzor tumanidagi shaharcha (2009). Tarkibi sher (f-t)+ali (a). Sherali ismli kishi dastlab hovli, qo'rg'on qurib, qishloq tashkil bo'lishiga asos solgan, chorvachilik bilan shug'ullangan, badavlat, boy, obro'yli kishi bo'lgan. Qishloq shu kishining ismi bilan atalgan. Xalifa Alini jasurligi, dovyurakligi uchun sherga o'xshatgan va olloh sheri deb atagan. Qovchinlarning sherali degan urug'i bo'lgan degan mulohaza ham mavjud (322-bet).

Eshonquduq // Eshonquduq - G'uzor tumanidagi qishloq. Tarkibi eshon+quduq. Dastlab quduq nomi bo'lgan. Quduq yonida tashkil qilingan qishloq ham shu nom bilan atalgan. Eshon – o'tmishda din odami, dindorlar orasida katta obro'ga ega bo'lgan shaxs, unvon, kishi ismi. Eshonquduq – Eshon ismiga ega bo'lgan kishi qazdirgan quduq (yonidagi qishloq), eshon unvonli kishi qazdirgan quduq atrofidagi qishloq (335-bet) kabilar.

2.10. *Normurodov M., Nafasov T. Chiroqchinoma (Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani qishloqlari nomining tadqiqi).* - Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2010, 168-bet. Bu asarda Chiroqchi tumani hududida hozir mavjud bo'lgan, manbalarda qayd qilingan, xalq xotirasida saqlangan 270 ga yaqin qishlog'u mahallalar, tarixiy obidalar, qadamjolar, xalq hayotida amaliy ahamiyat

kasb etgan turli obyektlar nomi lisoniy, ma'naviy-ma'rifiy va tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Asar "So'z boshi" (3-11-betlar), "Qishloqlar nomi – azaliy va moddiy ma'naviyat olami" deb nomlangan "Kirish" (12-20-betlar), "Qishloq nomlari talqini" deb nomlangan "Lug'at" (21-162-betlar), "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" (163-bet) qismlaridan iborat. Kitob oxiridan shoir O'roz Haydarning "Chiroqchi qasidasi" (164-165-betlar) ham o'rin olgan. Shunisi muhimki, bu asar tarkibida talqin qilinayotgan har bir toponimik obyekt izohi o'z kichik nomi (sarlavhasi)ga ega. Lug'atdan namuna:

Yolg'iz uy

Ayritom // **Ayritom** – shaharcha. Tarkibi: ayri+tom. Qipchoq shevalarida *tom* – uy, hovli. *Ayri* – ajralgan, qishloq boshqa qishloqlardan birmuncha uzoqlikda. *Ayritom* – boshqa aholi yashash maskanlari (qishloq)dan chekka joydagi yakka hovli qurilgan yerdagi qishloq (23-bet).

Katta tosh

Davtosh // **Davtosh** – Qalqama vohasida qishloq. Tarkibi: *dav*+*tosh*. Xalq nutqida *dav* // *dev* jonsiz va jonli narsalarning me'yordagidan katta, hajmi va tanasi ulkan ekanligini bildiradi. Qishloq atrofida ulkan hajmli toshlar ko'p bo'lganligi sababli *Davtosh* atalgan. *Davtosh* – tog' bag'ridagi qishloq, tog'u toshli qishloq (35-bet) kabilar.

i maydonga kelishiga mustahkam zamin hozirlanadi.

Toponimlar ma'lum joyni ifodalovchi, uning nomini, uni ko'rsatuvchi element va ayni vaqtda shu joy haqida ma'lumot beruvchi birlik hisoblanadi. Nom joyni ma'lum bir sistemaga olib kiradi va uni bir xil hodisalar ichida farqlaydi. So'z toponimga aylangach joyning yagona xarakterlovchi tipik belgisiga aylanadi. Shuning uchun ham har qanday so'z toponim bo'lavermaydi. Toponimlar o'zi ifodalayotgan joyning ehg muhim belgisiga, xarakterli xususiyatiga tayanadi. Inson o'zining joylarini nomlash tajribasida shu joyning eng xarakterli belgisini topa bilgan. Nomlar joyning shakli, xakteri, katta-kichikligi, uzoq-yaqinligi, rang-tusi, qattiq-yumshoqligi kabilarni

ko'rsatadi. Biror joy o'zining ma'lum narsaga boyligi, shunday predmetning ko'pligi bilan xarakterlansa, boshqa joy, aksincha, biror predmetning kamligi bilan farqlanadi. Shu boisdan ham toponimlar nominatsiyasida bir-birining aksi bo'lgan pozitivlik va negativlik prinsiplari mavjuddir.⁸⁶

Pozitivlik prinsipi. E. M. Murzayev fikricha, pozitivlik bu toponimlarda geografik reallikning aks etishidir. Darhaqiqat, toponimlar joyning fiziko-geografik xususiyati, shu yerning rel'efi, o'simliklar dunyosi, tuprog'i va shu kabilar to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi. Ma'lumki, odamlarning geografik joylarni nomlash tajribasida, shu joylarning geomorfologik xususiyatlari muhim va asosiy belgilardan hisoblangan. Ko'chmanchilik bilan yashagan chorvador xalq, albatta, shu joylarning o'simliklar dunyosi bilan qiziqqan va shu belgi joylarni farqlashda birinchi rejeda bo'lgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalq esa, o'zi yashaydigan joyning tuprog'i, uning o'ziga xos tomonlari bilan qiziqqan. Bu faktorlar mazkur joyni nomlash uchun asos bo'lgan.

“Alpomish” dostoni toponimiyasini tekshirish shuni ko'rsatadiki, toponimlar nominatsiyasida pozitivlik prinsipi faqatgina joyning fiziko-geografik xarakteristikasiga asoslanibgina qolmaydi, balki bunda boshqa qator iqtisodiy-sotsial faktorlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda tuproqning xususiyati, joyning o'simliklar dunyosi kabi faktorlar asosida vujudga kelgan toponimlar bilan bir qatorda, joy bilan bog'liq bo'lgan real voqea asosida, shu yerdagi xalqning kasbi, mashg'uloti, nomga asos bo'lgan predmetning son-sonog'i, shuningdek nomlanayotgan joyning biror predmetga o'xshashligi asosida vujudga kelgan nomlar anchagina. Toponimlar nominatsiyasida pozitivlik qator faktorlarga asoslanadi. Joyning geomorfologik xususiyati e'tiborga olinadi. Ma'lum joyni nomlayotgan sub'ekt yoki sub'ektlar shu yerning sezgi organlariga ta'sir

⁸⁶ Do'simov Z. Toponimlar nominatsiyasida pozitivlik va negativlik prinsiplari // O'zbek tili va adabiyoti, 1995, 5-son, 33-37-betlar.

qiladigan, avvalo, ko`zga ko`rinadigan xususiyatini orientirlovchi (differensiyalovchi) belgi sifatida sharhlaydi. Jumladan, shu yerning tekisligi, notekisligi, kengligi, torligi va hakoza kabilardan biriga asoslanadi. Bunda ob`ekt joylashgan tuproqning xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi: **Qumloq, Toshliq, Sug`ali (soz tuproqli), Sho`rlik, Qayir, Taqir, Balchiqli** kabi. Ob`ektning shakli, ko`lami (Uchmushli (uchburchak shaklida), To`rtko`l) e`tiborga olinadi.

Nomlanayotgan ob`ektning o`simliklar dunyosi ham pozitivlikda asosiy va muhim faktorlardan hisoblanadi. Doston toponimiyasida bu belgi ko`pgina nomlarga asos bo`lgan: Bul **Ko`kqamish** o`zining yaylovi, eldan urib chiqadigan yaqin yeri. Bu o`n kishi Boysarini olib kelgani jo`nab ketdi (390-bet).

Toponimik indikatorlar so`zning dastlabki ma`nolaridan biriga tayanadi. Masalan, toponimiyada uchraydigan Oqtepa, qoratepa, Qorator, Oqsuv, Qorasuv kabi toponimlarni oqarib turgan, qora tuproqli tepa yoki qop-qora suv oqadigan ariq tipida talqin qilsak haqiqiy izohdan yiroqlashgan bo`lamiz. Aslida Oqtepa –o`simliksiz, sho`r joy, Qoratepa –o`simlikli joy, Oqsuv –tog`dan keladigan ariq, Qorasuv – chuqur ariq, Qorator – o`simlikli, o`rmonli tog`, Oqtov - qorli o`simliksiz tog`, Olatov – tosh va qumli, o`simlikli tog` kabi ma`nolarga ega. Shuning uchun ham so`zlarning semantik xususiyatlari mahalliy sheva xususiyatlari bilan bog`liq ekanligini, har bir so`z o`ziga xos ma`no nozikliklarga ega ekanligini nazarda tutmoq zarur. A. V. Superanskaya ayrim indikatorlarning ma`nosidagi o`zgarishlar vaqt bilan bog`liq bo`lsa kerak deb hisoblaydi. Davr o`tishi bilan X termini A viloyatidan B ga ko`chadi. Ammo uning ma`nosi A viloyatida X, B viloyatida XI shakliga ega bo`ladi.

Toponimlar nominatsiyasida pozitivlik qonuniyati keng tarqalgan bo`lib, eng sarmahsul usullardan biridir. Shu boisdan ham nomlarni sinxron tekshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday nomlarning informatsion potentsiali osonlik bilan hal bo`ladi. Shu sababli ham joy nomlarini geografik, geologiya kabi fanlarning xizmatiga jalb qilishda, nomlarning amaliy

ahamiyatini belgilashda toponimik pozitivlik prinsipini alohida qayd etish kerak.

Negativlik prinsipi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo va Qozog'iston respublikalarida suv ancha kamchil. Ammo Boltiqbo'yi suvga boy. Qizig'i shundaki, Markaziy Osiyoda ko'plab nomlar suv bilan aloqador. Boltiq bo'yida esa bunday nomlar ancha kam. Bu shu bilan izohlanadiki, Markaziy Osiyo uchun xarakterli belgi suvdir. Darhaqiqat, toponimlar nominatsiyasida differensial belgi sifatida eng kam tarqalgan, eng noyob predmet ishtirok etishi mumkin. Toponimlardagi bunday xususiyat ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Odatda, negativlik prinsipi asosida atalgan nomlar paradoksal xarakterga egadek ko'rinadi. Lekin bu holat ham ma'lum qonuniyarga ega. Poyonsiz sahroda Qumloq deb ataluvchi joy hech qanday ma'no kasb etmaydi. Chunki atrofning o'zi qum. U joyni boshqalardan farqlamaydi. Sahro uchun xarakterli belgi albatta tosh, suv, o'simlik va hokazo. Shu sababli daraxtsiz cho'lda Toldi (toli bor) –qo'rg'on yoki Uchquduq nomi vujudga kelishi tabiiy holdir. Faqat o'zbeklar yashaydigan hududda hech qachon o'zbekqishloq deb yuritiluvchi joy bo'lmaydi. Aksincha, bu yerda ko'chib kelgan boshqa urug' yoki qabilaning nomi ob'ektning xarakterli xususiyati bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham Xorazmning aholi zich joylashgan yerida Qozoqovul, Yovmutlar, Chovdir (turkman urug'lari) kabi o'nlab nomlarning vujudga kelishi qonuniy holdir. Ko'pincha, etnik guruhlarning nomi bilan yuritiluvchi joylar shu hududda mazkur urug'ning yashaganini ifodalaydi. Ammo bu hududning yerli asosiy xalqi boshqa urug'ga mansub bo'lishi aniq. Etnonimlar, ko'pincha, ikki qabilaning yonma-yon yashagan, chegara joylarida ko'proq uchraydi. Etnotoponim o'zi asoslanayotgan qabilaning asosiy joyini emas, balki ularning keyingi o'rnini, ko'chib yurgan joylarini ifoda etadi. Bu xususiyat ayrim etnik gruppalarning migratsiyasini, ularning qaysi yo'nalishda ko'chganligini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. Ammo shu narsani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki,

negativlikda teritoriya ko'lamini asosiy o'rinda tutadi. Teritoriya ko'lamini qanchalik kichik bo'lsa, negativlik xiralashadi yoki umuman yo'qoladi. Katta territoriyalarda pozitivlik qonuni ish ko'radi. Masalan, O'zbekiston o'zbeklar yashaydigan joy – bu pozitiv hodisa. U Qozog'iston yoki Turkmanistonga nisbatan shundaydir. Ammo uning ichida Qozoqovul yoki O'zbekqishloq toponimlarining paydo bo'lishi negativ holat. Bu esa shu hududlarning o'z ichida ichki qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi. Xorazimda Gurlan tumanining mavjudligi aniq. Bu – pozitiv hodisa. Ammo qo'shni tumanda Gullanlilar toponimning vujudga kelishi negativ qonundir. Chunki bu hududda mang'itlar yashaydi. Gurlanlilarning ko'chib kelishi shu qishloq uchun xarakterli xususiyat. Bu butun tuman hududi uchun negativ holatdir. Ammo qo'shni qishloq uchun u tabiiy, pozitiv moment. Shuning uchun ham negativlikni belgilash asosan hudud ko'lamini bilan bog'liqdir. U butun boshli katta bir joy uchun nisbatan negativdir. Shu boisdan ham bu qonuniyatni toponimistlar nisbiy negativlik qonuni deb ataydilar.

Bu prinsipning nazariy tomonlari B.A.Nikonov tomonidan aniq va ilmiy jihatdan umumlashtirilgan.⁸⁷ Negativlik prinsipiga ko'ra toponim joyini farqlovchi differensial belgi asosida vujudga keladi. Nomning semantik xususiyati davr bilan, tarixiy, sotsial, iqtisodiy sharoit bilan, va mazkur hududdagi doimiy tradisiya bilan belgilanadi. Geografik joyini nomlash uchun asoslanilgan belgi turlicha bo'lishi mumkin. U shu yerda yashovchi va joyini nomlovchi kishilarning dunyoqarashi hamda yuqorida qayd etilganidek, iqtisodiy va tarixiy sharoiti kabilar bilan bog'liq. Biroq har gal tanlangan belgi differensial xarakterga ega bo'lishi yoki joyini xuddi shunday joydan farqlash lozim. Differensial belgi mazkur hududda keng tarqalgan xususiyat asosida emas, balki umuman, juda kam, noyob faktor asosida qurilishi va joyini ajratishi mumkin. Albatta, bu belgi, nom ijodkorlari – shu joyini nomlayotgan kishilar tomonidan tanlanadi. Joyning qaysi belgisini tanlash shu

⁸⁷ Никонов В.А. Пути топонимического исследования. -В кн; Принципы топонимики. Москва, 1964. 77-79-с.

kishilarning individual xususiyatlari bilan mazkur hududni, joyni qanchalik bilishi bilan ham bog'liqdir. Tanlangan differensial belgi nomlanayotgan joy uchun ham xarakterli bo'lishi, kishilarning diqqatini darhol o'ziga tortishi va bu belgi o'sha joy uchun toponimga aylanishi mumkin. Shuning uchun ham negativlik prinsipi shu hududda yashovchi kishilar tomonidan kengroq qo'llaniladi. Chunki ular bu joylarni yaxshiroq biladi. Nomlanayotgan hududdan tashqarida yashovchi kishilar shu joyning pozitiv xususiyatiga asoslanadilar. Albatta, ular joyni nomlaganida o'z hududlariga, o'z joylariga nisbatlaydilar. Shunday ekan, joyni nomlashda differensial belgini tanlash, nomlayotgan kishilarning qaerda yashashi muhim faktorlardan biridir. Joyni bevosita biladigan, u yerda yashovchi yoki yonma-yon yashovchi kishilar ko'pchilik hollardan differensial belgini negativlik qonuniga asoslangan holda tanlaydi. Joydan uzoqda yashovchi, u bilan bevosita aloqaga kirishmagan kishilar uni nomlashda pozitiv xususiyatiga asoslanadi.

Ammo shuni aytish lozimki, joyni nomlash uchun asos bo'lgan differensial belgi davr o'tishi bilan o'zining negativ xususiyatini yo'qotishi mumkin, chunki bu belgi toponim vujudga kelgan paytda shunday xususiyatga ega edi. Davr o'tishi bilan bu belgi boshqa nomlarga ham tarqalishi yoki umuman yo'qolib ketishi mumkin. Toponim vujudga kelgach, uning ma'nosi ikkinchi planga ko'chadi. Chunki toponim endi joyni boshqa joylardan farqlash uchungina xizmat qiladi. Boshqacha aytganda toponimning etimologik ma'nosi unitilib ifodalash funksiyasi birinchi planga o'tadi. Bu holat toponimlardagi negativlik vaqtga nisbatan teskari proportsional ekanligini ko'rsatadi. Toponimlarning pozitivlik va negativlik prinsiplari asosida semantikasi aniqlanadi. Dostondagi toponimlarni lug'aviy asoslari, atalish motivlariga ko'ra bir necha tipini uchratdik. Ona tili darslarida toponimlar va ularning turlarini o'quvchilarga o'rgatish asosida geografik tushunchalarni ham ular ongiga joylab borish mumkin. Dostondagi toponimlarni lug'aviy asoslariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish o'rinli bo'ladi.

3.1.1. OYKONIMLAR

Oykonimlar joy nomlari orasida alohida guruhni tashkil etadi. Qayd etilganidek, aholi punktlari va uning ichki bo'linishlari – qishloq, ovul, mahalla nomlari oykonimlar deb yuritiladi. Oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida shuni aytish lozimki, territoriya tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar oykonimik nomlarda yaxshi saqlanib qolgan. Aholining o'tmishdagi etnik sostavi – qaysi urug`, qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmish sharoiti – qanday kasb-hunar bilan shug'ullanganligi, shuningdek joyning biron kishiga qarashlilikini ifodalovchi oykonimlar fikrimizning dalilidir. Bundan farqli ravishda toponimlarning boshqa turlarida, chunonchi, gidronim va oronimlarda etnik nomlardan, kishi ismlaridan yasalgan toponimlar birmuncha kam uchraydi.

Oykonimlar ba'zilarining nomi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Bu hodisa aholi punktlari jamiyatining ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy – madaniy hayoti, turmush darajasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy – madaniy o'zgarishlar ko'proq oykonimlarda aks etadi.

Aholi punktlarining nomlari tarkibida qo'llanuvchi qishloq, kent, ovul, mahalla, qo'rg'oncha, guzar, ko'cha terminlari ham oykonimlarni xarakterlovchi muhim belgilardan hisoblanadi. Bu xil terminlar geografik nomning ikkinchi qismida qatnashadi. Ularni quyidagicha ko'rsatish mumkin: qishloq, kent, ovul, mahalla, qo'rg'oncha, guzar kabilar.

Sen bo'lasan bu yurtimning soyibi,

Ko'rar ko'zim, borma **Qalmoq** shahriga (212-bet).

Toychi viloyatida, Qalmoq muzofotida, Chilbir cho'lida Murodtepa degan tepasi bor edi, haddili baland tepa edi, ustidan qanotli qush uchib o'tolmas edi, har

qanday odam chiqib, oyoq osti qilib ketolmas edi (101-bet). Menga yo'ldosh bo'lding **Qalmoq** ellarda (317-bet).

Kashal elda u **Boysari** qolgandi,

Boysarini izlab safar qilgandi (319-bet).

Har kimsacha bordir bul hukumating,

Kashal ketgan mening otam bo'lmagin (342-bet).

Dostondagi oykonimlarning muhim xususiyatlaridan yana biri ularning takrorlanib turishidir. Binobarin, dostondagi bir el nomi oykonim sifatida bir necha joyda uchraydi.

Oykonimlar ma'nosiga ko'ra ham qiziqarlidir. Oykonimlarni ma'nosiga ko'ra tahlil etganda ularning qanday so'zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish prinsiplarini belgilash muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, oykonimlarning nomlanishi turlicha kechadi. Ularning ba'zilar aholining etnik tarkibini ifodalaydigan urug', qabila, xalq nomlaridan kelib chiqsa, ayrimlari kishi ismlari va laqablari, shuningdek, kasb – hunarga oid atamalar, o'simlik va hayvonotga bog'liq so'zlar bilan ataladi.

3.1.2. ETNOOYKONIMLAR

Jahon geografik nomlari tizimida etnooykonimlar katta o'rinni egallaydi. Urug', qabila, millat, xalq nomlari (etooykonimlar) asosida yaratilgan aholi punktlarining atoqli otlari etnooykonimlar tildagi ehg qadimgi toponimik qatlamlardan hisoblanadi. Ular uzoq tarixiy davrning yodgorligi bo'lib, ma'lum xalqning tarixini, etnik tarkibini o'rganishda, ularning tarqalish chegarasini ko'rsatishda va aniqlashda muhim manba sifatida g'oyat qimmatlidir.

Ma'lumki, jahon xalqlari ham ma'lum urug' - qabilalardan tarkib topgan. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi paytda dunyo xalqlarining ko'plab urug' - qabilalari nomlari unitilib yuborilgan. Lekin ularning katta qismi bugungi kunda ham jahondagi joy nomlari tarkibida yashab kelmoqda. Bu

hollarni dostonidagi quyidagi etnooykonimlarda uchratdik: Angliya, Astrobot, Belgiya, Bongola, Guruziya, Qo`ng`irot, Akdashman, Arab, Arabxona, Bo`ka, Do`rmon, Kenagas, Ko`rkat, Naymancha, Neko`z, Sarmug`ul, Saroy, Xo`ja Tohir, Shakar ovul, Qalmoq eli, Qatag`on, Qiyot, Qovunchi kabilar.

Azamat bosh berar dinning yo'liga,

Turarim yo'q **Boysun-Qo'ng'irot** eliga (23-bet).

Qalmoq yurtiga, Kasha eliga qarab yo'l boshlab yura bersin", — deb xabar yubordi (26-bet).

Ko'rganim yo'q **Qo'ng'irot** eli,

Qadimgiday zamonmikan?! (308-bet)

Izladi **Boysin** elatdi,

Yo'llarning tanobin tortdi (308-bet).

Shunday qilib, aholining etnik tarkibi ularning qaysi urug`, qabila, millat, xalqqa mansubligini ifodalovchi turarjoy nomlari – etnooykonimlari maydonga kelishiga mustahkam zamin hozirlanadi.

Dostonimiz geografik atamaları orasida katta bir guruhni tashkil etadi. Bu xil oykonimlar ma`lum hududlarda qadim zamonlardan boshlab hayot kechirgan turli qabilalar, xalqlarga oid ko`plab yangi ma`lumotlar beradi, ularning tarqalish chegarasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3.1.3. ANTROPOOYKONIMLAR

Kishi ismlari, laqablari, taxalluslar, familiyalardan yasalgan turarjoy nomlari antropooykonimlar deb ataladi. Chunonchi, Akbarobod, Amerika, Amerika Qo`shma Shtatlari, Amir Temur muzeyi va boshqalar.

Toychi viloyatida, Qalmoq muzofotida, Chilbir cho'lida Murodtepa degan tepasi bor edi, haddili baland tepa edi, ustidan qanotli qush uchib o'tolmas edi, har qanday odam chiqib, oyoq osti qilib ketolmas edi (101-bet).

Xaftada **Hashtarxon** borib qaytadi,

Jabr qilsang o'n botmonni tortadi, (309-bet)

Antropooykonimlar juda uzoq tarixiy davr mahsuli bo`lib, ularning vujudga kelishi ham ancha qadimiydir. Bu turdagi toponimlar jamiyatda sinflarning paydo bo`lishi quldorlik tuzumining yuzaga kelishi bilan yaratila boshlandi. Xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizmning shakllanishi bunday nomlarni yanada ko`paytiradi. Yerning har bir parchasi kimningdir xususiy mulki bo`lgan bir paytda, tabiiyki, uning egasining nomi asosiy farqlovchi belgiga aylandi. Natijada, joylar katta yer egalari – feodallar, urug` va jamoat boshliqlari mahalliy hukmronlar nomi bilan ataladigan bo`ldi.

To`plangan faktik materiallar shuni ko`rsatadiki, o`tmishda kishi atoqli otlarining joy nomiga aylanishi turli xil usullarda yuzaga kelgan.

3.1.4. ORONIMLAR

Toponimlarning ma`lum bir qismi yerning geomorfologik xususiyatlari asosida nom olgan bo`ladi. Yer tuzilishi, sathi bilan bog`liq bo`lgan bunday toponimlar oronimlar deb ataladi. Oronimlar yerning rel`fi shakllarini o`zida aks ettiradi. Yer yuzasi shakllari har xil: tekislik, tog`lik, qir, tepalik, jarlik, soylik, chuqurliklardan iborat bo`lishi mumkin. Mana shu xususiyat toponimlarning nomlanishiga asos bo`lib xizmat qiladi. Vaqt o`tishi bilan joyning rel`efi o`zgarishi mumkin, lekin o`sha rel`efni ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi. Chunonchi, “tepa”, “jar” ma`nosini saqlagan toponimlarning ayrimlari xozirgi vaqtda o`sha rel`ef xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin. Chunki keyingi paytlarda qilinayotgan qurilishlar, ochilayotgan yangi yerlar tufayli ularning rel`efi ham o`z-o`zidan o`zgargan. Biroq shunday bo`lsa-da, saqlanib hududning o`tmishdagi rel`efidan “esdalik” bo`lib qolmoqda.

Oronimlar rel`efni bildiruvchi quyidagi so`zlar vositasida shakllanadi: tepa, jar, chuqur, do`ng, tog`, dasht kabilar.

Besutun – osmon; Erondagi tog` nomi (VD, 88) beustun, ustunsiz.

**Boboxon tog`i** (VD, 15) – bu nom ba`zi manbalarda Bobotog` deb yuritiladi. Bobotog` - Surxondaryo viloyatining sharqidagi tog` tizmasi.

O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari chegarasida. Uzunligi 125 km, eni 30-40 km, eng baland cho'qqisi – Zarqosa tog'i, 2290m.

Bobo – katta, ulkan, buyuk, ulug', muqaddas; xon – yonidagi boshqa tog'lardan farqli, ajralib turuvchi. Boboxon tog'i > Bobotog' - katta, ulug', ajralib turuvchi tog' demak.

Masalan. **Boboxon tog'**ida yolg'iz qolib, Boychibor bilan Qorajon ikkovi boylovli yotib, avliyolarni-shafe keltirib, bu so'zni aytib yotir (141-bet).

Boysun (III,98; III B,264) – qo'shma so'z bo'lib, u boy + sun (sin) qismlaridan iborat. Boy so'zi, hozirgi ma'nolardan tashqari, qadimda o'ziga xos ma'nolarga ega bo'lgan. Bu so'z qadimda katta, yirik, ulkan; kuchli, ko'p, mo'l, ortiq, oshiq, ulug', muqaddas ma'nolariga ega bo'lgan: boy onaulug' ona, yoshi va hurmati buyuk ona. Baykal ko'lining qadimiy turkiy nomi – Boyko'l, ya'ni katta ko'l, ulug' ko'l. O'zbek tilida boy so'zi bilan yasalgan kishi nomlari (Boybo'ri, Boybo'ta) va qishloq nomlari (Boyovul, Boyqo'rg'on) anchagina.

Sun (sin) qadimgi turkiy tiliga xos so'z. O'zbek tilidagi sin so'zi bo'y, qad, qomat, ko'rinish ma'nolarida qo'llaniladi: sinli yigit, qaddi – qomadi kelishgan yigit. “Devon”da shu ma'noda qo'llanish ta'kidlanadi (DLT. III,162).

Xakas, tuva, oyrot, oltoy kabi turkiy tillarda sin so'zi tizma tog', tog' tizmasi; cho'qqi, qoya, yuksak balandlik ma'nolarida qo'llaniladi.

Boysun – ulug' tog' demakdir (21-43-betlar).

Yoz bo'lsa, yaylovim **Amu** yoqasi,

Men bo'laman **Boysin-Qo'ng'iro**t to'rasi (90-bet).

Olatog' (IV G,49) – Hisor tizmalarining Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Ko'kabuloq, Dehqonobodagi qismining umumiy nomi. Tog' nomi ikki qismdan iborat: ola + tog'. Ola so'zining “ola - bula”, “qorli” ma'nolari ma'lum. Lekin ayrim tadqiqotlarda ola so'zining “buyuk, katta” ma'nosi mavjudligi ta'diklanmoqdadir. Olatog' - buyuk tog' demakdir.

Masalan: To'rt odam bo'p **Olatoqqa** jo'nadi,
Qaramaydi, qichab ketib boradi (386-bet).
Tangqa taylab **Olatovni** yoyladi,
Qalmoqning yurtiga talab ayladi (31-bet).

Murodtepa (V,86,II,82) – oq soʻzi tepa, jae,qum, moʻla soʻzlari bilan birikkanda rang maʼnosini bildirmaydi. Tepalikning tik va keng koʻlamini ifodalaydi. Oqtepa – yon atrofida shu tipdagi boshqa balandliklardan hajman katta balandroq boʻlgan tepa. Masalan: Toychi viloyatida, Qalmoq muzofotida, Chilbir choʻlida **Murodtepa** degan tepasi bor edi, haddili baland tepa edi, ustidan qanotli qush uchib oʻtolmas edi, har qanday odam chiqib, oyoq osti qilib ketolmas edi (101-bet).

Qoʻngʻirtogʻ (IA,301) – Qarshi shahri shimolidagi togʻ. Oʻzbek tilida qoʻngʻir – qora – sariq rangli, togʻ malla; togʻ kulrang, qoramtir. Qoʻngʻirtogʻ - past togʻ, choʻl xonalarida mavjud boʻlgan choʻziq yassi tizma balandlik demak. Masalan:

Ko'rganim yo'q **Qo'ng'iro**t eli,
Qadimgiday zamonmikan?! (308-bet)

3.2. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI GIDRONIMLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Gidronim soʻzi (yunoncha *hudor* – suv + *onoma* – atoqli ot) suvlikdagi har qanday (tabiiy va sunʼiy) obyektlarning atoqli oti, toponim turi maʼnolarini bildiradi. Respublikamiz hududida *daryo*, *soy*, *ariq*, *kanal*, *jilgʻa*, *irmoq*, *buloq*, *sharshara*, *sardoba* kabi suv obyektlari juda keng tarqalgan. Jumladan, Fargʻona vodiysida 6500 ga yaqin daryo, soy, jilgʻalar, Zarafshon daryosining oʻrta oqimida

120 ga yaqin soylar, Qashqadaryoda 3120, Surxondaryoda esa 2200 dan ortiq daryo, soy, jilg'alar borligi aniqlangan⁸⁸. Shu bilan birga hozirgi vaqtda O'zbekistonda 53 suv ombori, 41 GES, 1456 nasos stansiyasi, 140 ming km.ga yaqin zovurlar, 30 ming km.dan ko'proq ichki tarmoq kanallari qurilgan, ular 4,3 mln. gektar yer maydonini sug'orish uchun xizmat qiladi⁸⁹. Bu suv obyektlarining barchasi o'z atoqli nomi – gidronimiga ega.

O'zbek gidronimiyasi sohasidagi izlanishlar juda qadimiy va uzoq tarixga ega. Masalan, S.Qoraev o'zining toponimik lug'atlarida toponimlar bilan birga juda ko'plab gidronimlarning ham izohini keltirgan. X.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" (1965), "Yer tili" (1977), "Geografik nomlar siri" (1985) kabi bir qancha asarlarida gidronimlar izohi masalasi ham o'rganilgan edi. Masalan, olim *Tuyatortar kanali, To'palang daryosi, ko'li Xubbon* singari gidronimlarning etimologiyasiga doir qiziqarli dalillarni keltiradi⁹⁰. N.Oxunov "Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari" nomli risolasida daryo nomlari (*Amudaryo, Sirdaryo, Qoradaryo, Oqdaryo, Zarafshon* kabi), suv omborlari nomlari (*Kattaqo'rg'on suv ombori, Chorvoq suv ombori* kabi), kanal nomlari (*Janubiy Mirzacho'l kanali, Ulug'nor kanali, Narpay kanali, Log'on kanali* kabi), soy nomlari (*Ohaklisoy, Qizilsoy, Sho'ralisoy, Chodaksoy* kabi), ko'l nomlari (*Orqako'l, Devonko'l, Oqchako'l* kabi), buloq nomlari (*Qo'tirbuloq, Qayroqchibuloq, Beshbuloq, Oqbuloq* kabi), ariq nomlari (*Jiydaariq, Sho'rariq, Chinorariq* kabi), quduq nomlari (*Toshquduq, Qizilquduq, Otquduq* kabi), hovuz nomlari (*Toshhovuz, Molhovuz* kabi), zovur nomlari (*Ko'kzovur, Qorayog'zovur* kabi), to'g'on va quvur nomlari (*Qumto'g'on, Beshquvur, Toshquvur* kabi) singari gidronimik ob'ektlarni tasnif etadi hamda bunday gidronimlarning ayrimlarini etimologik jihatdan talqin qiladi. Masalan, *Bulung'ur* kanalining nomi asosida mo'g'ulcha so'z yotadi. Ya'ni *bulung'ur* so'zining ma'nosi *loyqa* suv demakdir. *Arashonbuloq* gidronimining birinchi komponentidagi *arashon* so'zi sanskritcha

⁸⁸ Саидов А. Тоғ сойлари – суғориш манбаи. – Тошкент: Фан, 1974, 14-бет.

⁸⁹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўн икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент, 2001, 698-бет.

⁹⁰ Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965, 53-55-бет.

bo'lib, “*shifobaxsh, iliq*” ma'nolarini bildiradi. Shunga ko'ra *Arashonbuloq* gidronimi “*shifobaxsh buloq*”, “*issiq buloq*” ma'nolarini ifodalaydi. *Ulug'nor* gidronimining ikkinchi qismida qo'llangan “*nor*” so'zi arabcha “*nahr*” (*daryo*) so'zining mahalliy aholi talaffuzidagi fonetik variantidir. Shunga ko'ra *Ulug'nor* gidronimi “*katta kanal*” ma'nosini bildiradi. Yoki *Sangzor* daryosi nomi tojikcha *sang* – *tosh* va o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi qo'shimchadan tarkib topgan bo'lib, “*toshli er, toshloq*” ma'nosini ifodalaydi⁹¹.

O'zbek gidronimiyasi bo'yicha dastlabki tadqiqot “Samarqand viloyati gidronimlari” (lisoniy tahlil) deb nomlanadi⁹². Bu nomzodlik dissertatsiyasi uch bobdan iborat bo'lib, uning dastlabki bobi “Gidronimik atamalar” tahliliga bag'ishlangan. Ishning keyingi boblari esa Samarqand viloyati dialekt va shevalarida uchrovchi gidronimlarning leksik, semantik, morfologik va etimologik tahlilini o'z ichiga oladi. N.Begaliyev keyinchalik e'lon qilgan “Samarqand toponimiyasi” nomli asarining alohida bobi “Gidronimlar – suv nomlari demak” deb nomlangan. Bu asarda *Darg'om arig'i*, *Jo'yi Arziz*, *Obi Mashhad*, *Chorjo'y arig'i*, *Shahob arig'i*, *Korizquduq*, *Qo'shquduq* kabi gidronimlarning etimologiyasiga doir ma'lumotlar keltirilgan⁹³.

O'zbek gidronimiyasi bo'yicha ikkinchi yirik tadqiqot N.Uluqovning monografiyasidir⁹⁴. Olim keyinchalik ana shu monografiya asosida tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi⁹⁵.

Shuningdek, A.Muhammadjonov, M.Turdibekov, A.Otajonova kabi ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida ayrim gidronimlarning xususiyatlarga doir muhim kuzatishlar keltirilgan. Masalan, T.Nafasov o'zining maqolalarida “*jili*”, “*qashqa*” formantli gidronimlarning paydo bo'lishi, etimologiyasi haqida o'z kuzatishlarini bayon qilgan edi⁹⁶. Gidronimlar filolog olimlardan tashqari juda

⁹¹ Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989, 36-37-бетлар.

⁹² Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил). – Самарқанд, 1994, 25 бет.

⁹³ Бегалиев Н. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2010, 13-17-бетлар.

⁹⁴ Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008, 192 бет.

⁹⁵ Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий лисоний тадқиқи. – Тошкент, 2010, 48 бет.

⁹⁶ Нафасов Т. *Жили* компонентли гидронимлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988. № 5, 43-45-бетлар.

ko'plab geograflar, tarixchilar va etnograflar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Masalan, A.Juvonmardiev "XVI-XIX asrlarda Farg'onada er-suv masalalariga doir" nomli asarida *Norin*, *Sirdaryo*, *Shahrixon*, *Dalvarzin*, *Andijonsoy* kabi bir qancha gidronimlarning shakllanishi haqida fikr bildirgan edi⁹⁷. Y.Qosimov esa Namangan vohasining sug'orilish tarixidan" nomli asarida o'sha viloyatdagi *Qalmiqariq*, *Bog'ish*, *Qurama*, *Mamay*, *Beshatmon*, *Ko'kjar* kabi tarixiy qabila, urug' nomlari bilan atalgan ariqlar, *Boyariq* (hozirgi *Namangansoy*), *Eshonbobo kanali*, *Yangiariq*, *Mutagan*, *Xonariq* kabi boshqa o'nlab suv ob'ektlarining nomlanishi haqida fikr yuritgan⁹⁸.

Gidronimlar ma'lum bir suv ob'ektlariga nom bo'lar ekan, bunda nisbiylik tamoyiliga ham amal qilinadi. Ya'ni bunga ko'ra gidronimik ob'ektlarning xususiyatlari o'sha gidronimlarda to'la o'z aksini topmagan bo'ladi. Masalan, Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida *Kattajilvon*, *Kichikjilvon* degan ariqlar bor. Bu ariqlar nomi tarkibidagi *jilvon* so'zi toponimdir. Bu ob'ektga yaqin bo'lgan ariqlarni nomlash uchun o'sha toponim oldidan *katta* va *kichik* so'zlari qo'llangan. Yoki *Janubiy Farg'ona kanali*, *Janubiy Mirzacho'l kanali* kabi gidronimlar haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Suv ob'ektlariga nom qo'yishda uning belgi, xususiyatlari asosida yuzaga kelgan ziddiyat yoki oppozitsiya ham inobatga olinadi. Masalan, *Shirinbuloq*, *Qo'tirbuloq* va boshqalar.

Gidronimlar shakl jihatdan sodda-tub, sodda-yasama, qo'shma va birikmali xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, *Qorasuv*, *Qoradaryo*, *Oqdaryo* kabi gidronimlar tarkibi ikki qismdan iborat qo'shma so'zlardir. Lekin shu bilan birga ayrim gidronimlarning tarkibiy tuzilishini hozirgi davrga ko'ra aniq belgilab bo'lmaydi. Masalan, Namanganda *Qarg'aliko'l*, *To'ng'izo'ldi*, *Qorachig'ay* kabi ariq nomlari bor. Ularning shakllanishi, etimologiyasi haqida turli xil qarashlar mavjud. Shuningdek, O'zbekiston hududida juda ko'plab etnogidronimlar mavjud:

⁹⁷ Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғона ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965, 184-бет.

⁹⁸ Қосимов Й. Наманган воҳасининг суғорилиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1988, 121-бет.

Xitoyariq, Farg'ona ariq'i, Qirg'izbuloq, Qipchoqariq gidronimlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari O'zbekiston hududidagi ayrim gidronimlar antropogidronim shaklidadir: *Toshboboariq'i, Jo'raxo'ja bulog'i, Jo'yimahmud, Jabborsoy* kabilar. Bundan tashqari gidronimlarning ayrimlari agrogidronimlar shaklidadir: *Xonariq, Xo'jaobod, Eshonariq* kabilar.

Gidronimlarning etimologiyasi juda ko'p olimlarni qiziqtirib kelmoqda va gidronimlarning kelib chiqishiga doir xalq etimologiyasi bilan birga turli xil ilmiy-etimologik kuzatishlar bayon qilinmoqda. Masalan, Farg'ona viloyatida *Qizariq* degan ariq bor. Bu gidronimning kelib chiqishiga aslida *qiz* so'zining boshqa ma'nosi – "Baland tog'ning quyosh tushmaydigan joyi" degan ma'nosi asos bo'lgan. *Qizariq* so'zi tarkibidagi birinchi komponent aslida *qizil* bo'lgan, keyinchalik bu so'z tarkibidagi *-il* qo'shimchasi tushib qolgan⁹⁹.

Gidronimlarning etimologiyasi tahlil qilinarkan, olimlar morfologik, derivatsion, semantik, tarixiy va dialektalogik tamoyillarga asoslanib ish tutmoqdalar. Masalan, *Rezaksoy* degan gidronim tarkibidagi "*rez*" so'zi *mayda ushoq, joy* degan ma'noni bildiradi. *Tutak* kanalning nomi haqida ham turli xil qarashlar bor. Shulardan N.Rahmonning "O'zbekistonning ko'hna turkiy run yozuvlari" nomli kitobida ta'kidlanishicha, bu gidronim *tutak-tutuk* so'zidan olingan bo'lib, "*harbiy ma'muriyat boshlig'i*" degan ma'noni bildiradi. N.Uluqov esa bu gidronimning kelib chiqishini fors-tojik tilidan o'zlashgan *to'tak* so'ziga bog'laydi. Uning ma'nosi "*paxtadan ip yigirishda ishlatiladigan qovoq naycha*" dir¹⁰⁰. Ayrim gidronimlar perifrazaviy nomlanish xususiyatiga ega. Masalan, badiiy va publisistik uslubga oid matnlarda *Shimoliy Farg'ona kanali - Namangan vohasining hayot nahri // Namanganning hayot nahri, Katta Namangan kanali - Namangan vohasining kumush kamari, Kosonsoy suv ombori - Tog' orasidagi dengiz, Norin daryosi va Sirdaryo - Farg'ona vodiysining oltin kamari, Narpay*

⁹⁹ Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008, 115-бет.

¹⁰⁰ Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008, 124-126-бет.

kanali – Zarafshon vohasining oltin belbog'i kabi perifrazaviy nomlar bilan yuritiladi.

Gidronimlarning yasalishi, yasalish usullari o'zbek tilshunosligida hali keng o'rganilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir. Suv ob'ektlarining atoqli otlari bo'lib, doston toponimiyasida salmoqli o'rinlardan birini egallaydi. Hidronimlar turlicha ma'nolarni ifodalab keladi.

Amu (I,124).Markaziy Osiyadagi yirik daryolardan biri Amudaryo deb nomlanadi. Orol dengiziga qo'yiladi. Amu nomi adabiyotlarga ancha kech kirib kelgan. Amudaryo haqidagi eng ilk yozma ma'lumotlar Oks (grekcha Oksos) nom bilan grek manbalarida uchraydi. Oks yoki Oksos mahalliy o'kuz (daryo) so'zining grekcha talaffuzi asosida vujudga kelgan. "O'kuz – Amudaryoning mahalliy sak – massaget nomi bo'lib, o'rta asrning eng so'nggi davrigacha saqlanib qolgan" (41;37-bet). O'rta asrlarda Jayhun nomi bilan mashhur bo'ladi. "Jayhun" Tavrotdagi "Gixon"ning arablashtirilgan shakli bo'lib, arablar tomonidan kiritilgan. Ayrim manbalarda Vaxsh, Vaxrud, shaklida ham uchraydi. Amudaryoning hozirgi nomi asosiy va eng ko'p o'tish joyi bo'lgan Amuya (hozirgi Chorjuy) shahri nomi bilan bog'liqdir.

Amu – Buxoro kanali (II,82; IV,43). – Buxoro viloyatidagi sug'orish kanali. Amudaryoning o'ng qirg'og'idan, Chorjo'y shahridan 12km yuqoridan boshlanadi. Qizilqumdan o'tib Buxoro vohasiga suv beradigan kanal 1965-yilda boshlanib, 1976-yilda tugallangan. Umumiy uzunligi 400km. Amudaryo suvi nasoslar yordamida 11m. balandlikka ko'tarib beradi. Bu kanal Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlaridagi 77mingga sug'oriladigan yerlarning suv ta'minotini yaxshilash imkoniyatini yaratadi. Masalan:

Yoz bo'lsa yaylovi **Amu** yoqasi,
Musofir bo'p Qalmoq ketib boradi (31-bet).

Yoz bo'lsa, yaylovim **Amu** yoqasi,
Men bo'laman Boysin-Qo'ng'irot to'rasi (90-bet).

Oynako'li (IIB,338) – toponimi oy < o'y + na < ko'l qismlaridan iborat. Qadimgi turkiy tilda o'y – chuqur, chuqurlik, qazilgan chuqur; -li affiksi qo'shilib o'yli (chuqurlik, o'yiqli) yasalgan; o'yli ko'l – chuqur qilib chiqarilgan suv, o'yli so'zida tovush o'zgarishi yuz bergan: o'yli > o'yni > o'yna > oyna ko'li – ko'p suvli ko'l. Xalq izohiga ko'ra, oynako'l – tiniq zangori rangdagi suvli buloq. Bu izoh oyna so'zining ma'nosiga nisbat etilgan. Masalan: Shul vaqtda mollar bilan birga kelayotgan qora uylar Chilbir cho'lini, **Oyna ko'lini** yoqalab qo'na berdi. (32-bet) . Bular shu Chilbir cho'lida, **Oyna ko'lida** qo'nib, suvlab, mollari o'tlab qo'nib yota bersin, sarishtalarini ola bersin, endigi so'zni Qalmoq yurtidan eshiting (33-bet).

Bobir ko'li – toponimi bobir < ko'l qismlaridan iborat.

Yarqillagan **Bobir ko'lini** ko'rib,

Bobir ko'lda, yaylov joylarda yurib (322-bet).

Arpali ko'li – toponimi arpa < ko'l qismlaridan iborat.

Alpomish ketganda, **Arpalining** ko'lida qolib edi, shundan beri ajriq bosib yotgandir (362-bet). Shunday qilib, kiyintirib, keskir qilichlarni beliga boylab; **Arpali** ko'lidan otlana berdi (85-bet).

Ko'kqamish ko'li – toponimi ko'k+qamish < ko'l qismlaridan iborat.

Chiqarib olib, “Qizimga **Ko'kqamish ko'lida** qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin”, — dedi (17-bet).

3.3. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI TEONIMLARNING

FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

“*Teonim*” (yunoncha *teog* - *xudo* (*Olloh*) + *onoma* – *atoqli ot*) – Ollohnning nomi va atributlarining atoqli oti degan ma'noni bildiradi. “*Teonimiya*” esa shunday atoqli otlarning to'plami, yig'indisi, “*teonimika*” shunday onomastik ko'lamga mansub atoqli otlarni o'rganuvchi soha ma'nosini bildiradi¹⁰¹.

Teonimlar tildagi juda qadimiy lug'aviy birliklar bo'lib, ularning paydo bo'lish davrlari insoniyatning o'ta ko'hna dunyodagi diniy qarashlari, animizm,

¹⁰¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 75-бет.

totemizm, tabu, evfemizm singari tasavvurlari bilan bog'liqdir. Teonimlarning paydo bo'lishi ko'p xudolilik va bir xudolilik davrlarini o'z boshidan kechirgan.

Turkiy teonimlar, ayniqsa uning o'ta ko'hna davrlardagi tarixi haqida G.P.Snesaryov, O.A.Suxareva, N.Dыrenkova, M.V.Stebleva, T.D.Bayaliyeva, N.F.Mokshin kabi olimlarning ishlarida uchraydigan ma'lumotlar qimmatlidir. Masalan, G.P.Snesaryovning maqolasida Araviya qabilalarining qadimiy ilohlari *al-Lot, al-Uzzo, Manot*; Yaman ilohlari *Vadd, Suva*'; ko'hna tarixga mansub bo'lgan *Ramuza, Axraman, Axura-Mazda*, shuningdek mifik tasavvurlar bilan aloqador *ajdarho, dev // devoh, pari, jinlar*, ularning genezisi, etimologiyasi haqida fikr yuritilgan¹⁰².

Alloh (Xudo // Xudoy, Tangri, Yaratgan, Yazdon, iloh, ilohalar va bu tushunchalar bilan bog'liq atributlar haqida tarixiy, badiiy, etnografik, folklorshunoslik, mifologik, qisman tilshunoslik fanlarida kuzatish olib borilsa-da, teonim, teonimiya tushunchasi, uning doirasiga kiradigan aniq lug'aviy onomastik birliklar, ularning chegarasi va ko'lamini yuzasidan hozircha izchil fikrlar bildirilganicha yo'q. Nomshunoslik ilmida bu masalani o'rganishda yo'l qo'yilayotgan chalkashliklarni quyidagicha to'rtga ajratish mumkin: a) bordiyu, teonim tushunchasi va termini ma'nosidan kelib chiqiladigan bo'lsa, teonimlar doirasiga faqat *Alloh* nomi, boshqa xil qadimiy iloh va ilohalar nomi kiritilishi lozim; b) ba'zi ishlarda atoqli ot *Alloh (Tangri, Yaratgan, Xudo // Xudoy)*, uning turli sifatlari bo'lmish *sattor, vohid, hamid, jabbor, g'affor, qodir* va boshqalar teonim sifatida qayd qilinmoqda. Ular atoqli ot deb qaraladigan bo'lsa, hozirgi imloviy qoidalarga ko'ra bosh harf bilan yozilmog'i kerak; v) *Alloh* tushunchasining dubletlari, absolyut sinonimlari bo'lmish *Olloh // Allah, Tangri, Xudo // Xudoy, Yazdon* va boshqalar hozirgi vaqtda gohida kichik, gohida bosh harflar bilan yozilmoqda; g) ba'zi ishlarda teonim, teonimiya tushunchasi asl ma'nosiga teskari ravishda har qanday diniy tushuncha va tasavvurlar atoqli otini

¹⁰² Снесарёв Г.П. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980, 272-282-с.

o'zida mujassamlashtiruvchi onomastik birlik deb tushunilmoqda. Shunga ko'ra teonimiya doirasi nihoyatda kengayib, diniy mazmunli tabarruk, muqaddas deb bilinuvchi shaxslar, avliyolar, o'tmishda sig'inish obyekti bo'lgan real va noreal (xayoliy, mifologik) subyektlar, figuralar nomi ham kiritilmoqda va ular ko'pincha *agnonim* termini bilan yuritilmoqda.

Ayrim ishlarda teonim va teonimiya doirasi yanada kengroq tushunilib, uning tarkibiga *nekronimlar* - diniy marosimlar bajariladigan joylar nomi (cherkovlar, monastirlar, masjidlar, hatto madrasalar), muqaddas deb bilinib sig'iniladigan obyektlar, narsalar atoqli otlari ham, shartli ravishda, toponimiya ko'lamiga hamda teonimiya mikroko'lamiga kiritilmoqda. Bizningcha, teonim (teonimiya), agnonim (agnonimiya), nekronim (nekronimiya) tushunchalarini, ular doirasiga kiruvchi atoqli otlarni aniq farqlash, chegaralash maqsadga muvofiq bo'lardi. Teonimlar jonli deb hisoblanuvchi narsalar, obyektlar, shaxslar nomi bo'lsa, nekronimlar qabristonlar, mozorlar, mana shu tipdagi muqaddas joylarning atoqli otlaridir. Mohiyatan teonimlar antroponimlarga, antroponimik ko'lamga yaqin turadi, agnonimlar va nekronimlar esa jonsiz obyektlarning atoqli oti sifatida toponimiya, toponimik ko'lamga mansubdir. Shunga ko'ra, agnonim va nekronimlarni teonimiya tarkibiga kiritish mazmunan va mantiqan unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak. Jumladan, A.Aslonov o'z nomzodlik ishida Shofirkon tumani onomastikasiga xos xususiyatlardan biri uning tarkibida anchagina miqdorda nekronimlarning uchrashidir, deb hisoblaydi hamda 131 masjid, 66 mozor, 17 avliyo, 10 qabriston, 2 xonaqo (xonaqoh) nomini to'playdi. Bunday nekronimlarning umumiy miqdori 230 dan ortiq ekanligini ta'kidlaydi¹⁰³. Shunga ko'ra teonim (teonimiya) deyilganda faqat Allohning nomi (nomlari)ni tushunish, agnonim (agnonimiya) deyilganda muqaddas deb bilinuvchi narsalar va shaxslar nomini anglash, nekronimlar deyilganda esa ushbu termin anglatuvchi ma'noga mos ravishda qabrlar, qabristonlar (mozorlar, mozoristonlar), shuningdek ba'zi diniy

¹⁰³ Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. НДА. – Тошкент, 2005., 14-16-бетлар.

obyektlar nomi (masjid, madrasa, honaqa kabilar)ni tushunish maqsadga muvofiqdir¹⁰⁴.

“Mifonim” esa afsonalar, ertaklar, rivoyatlarda uchraydigan *dev*, *ajdar* singari atoqli otlar, degan ma’noni bildiradi. Ularning yig’indisi “*mifonimiya*”, shunday onomastik ko’lamni o’rganuvchi soha nomi esa “*mifonimika*”dir. Shu bilan bog’liq holda o’zbek nomshunosligida keyingi yillarda “*mifozoonim*”, “*mifotoponim*”, “*mifofitonim*”, “*mifoantroponim*” kabi terminlar ham qo’llanilmoqda¹⁰⁵.

Masalan, o’zbek mifologiyasining obrazlar tizimida afsonaviy qushlar bilan bog’liq e’tiqodiy qarashlar ham muhim o’rin tutadi. Ana shunday xayoliy, mifologik qushlardan biri Anqodir. Ko’pgina folklor asarlarida anqo barcha qushlar afsonaviy ajdodboshisi yoki onasi deb tasavvur qilinadi. Shuningdek, anqo Ko’hi Qofda yashaydigan afsonaviy qush, barcha qushlarning podshosi degan mifologik qarashlar ham bor. Ayrim o’zbek xalq ertaklarida anqo ramziy qushlar obraziga o’xshash mifologik jonzot sifatida namoyon bo’ladi. Umuman olganda, Anqo obrazi o’zbek xalq og’zaki ijodi epik janrlari (mif, afsona, ertak, doston kabi)ning mushtarak badiiy elementlaridan biri bo’lib, xalqimizning bu qush to’g’risidagi e’tiqodiy qarashlari mifologik va epik talqinlar sifatida folklor asarlariga chuqur singib ketgan. Xalq og’zaki ijodi badiiy an’alarining bevosita ta’sirida o’zbek mumtoz adabiyotida “anqo” obrazi badiiy timsol sifatida juda ko’p asarlarda qo’llanilib kelganligini alohida ta’kidlash lozim¹⁰⁶.

3.4.1. TEONIMLAR

“Avesto” asari tarkibida mifonimlar, teonimlar keng qo’llangan. Masalan, shulardan biri xalqimiz orasida *Jumard qassob*, *Jonmardi qassob*, *Gavmard* // *Gavomard* deb nomlanuvchi va ayrim joylarda qassoblarning piri sifatida e’tirof etiluvchi mifologik personaj ham “Avesto”da mavjud. “Avesto” mifologiyasi

¹⁰⁴ Бу ҳақда қаранг: Авлиёкулов Я. Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (илмий-назарий анжуман материаллари). – Қарши, ҚарДУ нашри, 2008, 15-18-бетлар.

¹⁰⁵ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 47-бет.

¹⁰⁶ Жўраев М. Анқо образи талқинига доир мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. № 2. 54-бет; Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006, 103-107-бетлар.

o'zbek folklori obrazlar tizimining shakllanishi va taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Masalan, Gaya Martan zardushtiylikda yer yuzida yashagan birinchi odam sifatida tasavvur qilingan. Asardagi *Gavomard*, *Gopatshoh*, *Gilshoh*, *Qayumars* singari personajlar ham *Gaya Martan* bilan genetik jihatdan aloqador. Jumard haqidagi afsonaning nisbatan tugal varianti etnograf G.P.Snesaryov tomonidan Ko'hna Urganchdan yozib olingan.

Xorazmdagi *Jumritov* (*Yumritov*) oronimi ham *Jumard* mifonimi orqali "Avesto" mifologiyasiga bog'lanadi... *Jumritov* oronimi aslida *Jumarttov* bo'lib, ko'p asrlik lisoniy taraqqiyot natijasida hozirgi fonetik holatiga kelib qolgan¹⁰⁷.

"Avesto"da *Arđvi* suv kultini o'zida mujassamlashtirgan mifologik daryoning nomidir. Qadimgi mifologiyada suv kulti mo'l hosil olish g'oyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun ham "Avesto"da tasvirlangan muqaddas daryo qut-baraka va suv ma'budasi *Arđvisura* *Anaxita* obrazida timsollashtirilgan¹⁰⁸.

Qadimgi ajdodlarimizning mifologik tasavvurlar tizimida suv kulti bilan aloqador syujetlar alohida o'rin tutadi. Ana shunday mifologik personajlardan biri *Hubbi* obrazidir. Shu mifologik nom bilan bog'liq ayrim toponimik obyektlar ham mavjud. Masalan, Buxoro shahridan 40 km. janubi-g'arbda *Xoja Ubbi avliyosi*, Jondor tumanidagi Oqshix qishlog'ida *Sulton Hubbi qadamjosi*, Ohangaron daryosi bo'ylarida *Erhubbi*, Qamashi tumanidagi *Hubbil tepa* shular jumlasidandir¹⁰⁹.

Payg'ambarlarning ismlari teonimlarning asosiy qismini tashkil etadi. "*Payg'ambar*" so'zi forsha bo'lib, "payg'om" – xabar, "burdan" – keltirmoq, ya'ni "xabar keltiruvchi", "elchi" ma'nolarini bildiradi. Diniy adabiyotlarda, xususan Qur'on va hadislarda payg'ambarlarga nisbatan "nabi" va "rasul" so'zlari qo'llangan. Qur'onda 28 ta payg'ambarning nomi qayd etilgan: *Odam*, *Idris*, *Nuh*,

¹⁰⁷ Жўраев М. Гавомард образининг ўзбек фольклоридаги талқинлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. № 5. 48-55-бетлар; Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006, 19-29-бетлар.

¹⁰⁸ Эшмуродов М. "Авесто"да сув култи // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. № 5. 55-58-бетлар.

¹⁰⁹ Жўраев М. Ўзбек мифологиясида Хубби образи // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002. № 2. 14-21-бетлар; Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006, 29-39-бетлар.

Xud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Is'hoq, Yoqub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zul kifl, Shuayb, Muso, Xorun, Dovud, Sulaymon, Yunus, Ilyos, Yahyo, Zakariyo, Iso, Muhammad, Luqmon, Zulqarnayn. Qur'ondagi 114 ta suraning 7 tasi payg'ambarlar nomiga qo'yilgan: *Yunus – 10-sura, Xud – 11-sura, Yusuf – 12-sura, Ibrohim – 14-sura, Muhammad – 47-sura, Nuh – 71-sura, Inson (Odam) – 76-sura.*

Payg'ambarlar nomlari, ya'ni teonimlar Qur'on va islom dini orqali turkiy tillarga, jumladan o'zbek tili lug'aviy tizimiga ham kirib kelgan. XVII-XVIII asrlardan boshlab bunday teonimlar eski turkiy (o'zbek) tili antroponimik tizimidan ham mustahkam o'rin ola boshladi. Payg'ambarlar ismlarining ko'pchiligi Qur'onga "Zabur", "Tavrot", "Injil" kabi muqaddas kitoblardan o'tgan. Keyinchalik payg'ambarlarning ayrim nomlari teonimik antroponimlardan oddiy antroponimlarga aylana boshladi, ya'ni kishilarning oddiy ismlari sifatida keng qo'llanadigan bo'ldi. Masalan, IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Somoniylar davlatining rahbarlari *Nuh, Ilyos, Yahyo, Is'hoq, Hamid, Yoqub, Ahmad, Ismoil, Abuibrohim* ismlari bilan nom qozongan edilar¹¹⁰.

XII asrdan boshlab bunday teonimik antroponimlar "Qutadg'u bilik", "Hibbatul haqoyiq", "Qissasi Rabg'uziy", "Boqirg'on kitobi" kabi turkiy adabiy yodnomalarda ham qo'llana boshlandi. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asari bevosita ana shunday teonimlar tahliliga bag'ishlangan. Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida juda ko'plab teonimlar keltirilgan. N.Husanov ana shunday teonimik antroponimlarni tahlil qilishga bag'ishlangan monografiya yaratdi. Bu ishning asosiy qismi payg'ambarlar, ularning ajdod-avlodlari, Muhammadning avlod-ajdodlari, xalifalarning nomlari, avliyo va farishtalarning nomlari tahlilini o'z ichiga oladi¹¹¹.

Xizr, Luqmon kabi avliyolar va *Azroil, Jabroil, Isrofil, Mekoil, Munkar, Nakir* singari farishtalarning nomlari ham teonimlar qatoriga kiradi¹¹².

¹¹⁰ Бегматов Э. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994, 4-65-бетлар; Хусанов Н. Пайғамбарлар исмининг маънолари // Сирли олам. 1994. № 4. 19-20-бетлар.

¹¹¹ Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. 1-қисм. – Тошкент: "Ёзувчи", 1996, 26-119-бетлар.

¹¹² Нурманов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва ўзбек фольклоридаги талқини. НДА.–Тошкент, 2007, 24-бет.

Shuningdek, *Azozil, Molik, Uzzo, Uzoyo, Xorut, Morut* kabi antroponimlar ham farishtalarning ismlari bo'lib, ular ham teonimlar sanaladi.

3.4.2. AGNONIMLAR

Agnonimiya deyilganda muqaddas deb bilinuvchi narsalar va shaxslar nomini anglash. Dostonda bunday nomlar juda ko'p va o'rinli qo'llanilgan. "Alpomish" dostoni tilida ham teonimlar asar qahramonlarining milliy qadriyatlarini, diniy dunyoqarashini ifodalash uchun xizmat qilgan. Asar qahramoni Alpomishga ilohiy kuchlar, ya'ni pir-u payg'ambarlar madadkor ekanligi tasvirlanadi. Qahramon ojiz bo'lgan holatda doim pirlaridan madad so'raydi. Dostonda Alpomishning Allohga, payg'ambarga, pirlarga iltijosi va uning ijobati tasviri ham shundan dalolat.

Jilovida ***Bobo Qambar*** jilovdor,
G'amingda otlandi ***Shohimardon pirlar*** (96-bet).

Yer yuzini tutib ketsa aydahor,
Fotma der, ***Zuhra*** der, kanizi darg'a (100-bet).

Barchaning otasi hazrati ***Odam***,
Payg'ambarlik bo'ldi unga musallam,
Ibrohim, Ismoil, Makka muazzam,
Dinlarning chirog'i ***Imomi A'zam***,
Muhammdga ummat, haqqa musallam.
Avvalam yaratding sen Odam safi,
Andin paydo bo'ldi sonsiz ming vali,
Shayx Ahmad, Zinda pil, Imomi shafi,
Oblo, sendan boshqa yo'qdir murabbiy.
Satqang bo'lay er ***Sulaymon*** poyi tog',
Qo'qonga yubordi muyi muborak,
Ziyorat aylaydi nasib qilgan xalk,

Karimsan, samatsan, rasuling barhat,
Rahm aylab, yor bo'ling nochor qullara.
Maydonda qilmadim Rustamning jangi,
Haybatimdan titrab ketsa farangi,
Toshkantning mulkinda er bobo **Zangi**,
Tovba qildim, men gapirsam baland-pas,
Bul bandadan baland bo'lar chupu xas,
Sahiyning sardori ul **Sayd Vajnoye**,
Sadarang bo'layin **Ravs bilan Riyos**,
Haqning xaznachisi **Xidiri Ilyos**.
Haq deb chiqar g'amli qulning ovozi,
Otingdan aylanay haqiqat qozi,
Satqang bo'lay, **Xuja Hofiz Sherozi**,
Gunoxkor bandangman, rahmon, bo'l rozi.
Umid qip yig'ladim **hazrati Nurdan**,
G'am tortgan lochinni qutqargin turdan,
Avvali oblodan, duyumi pirdan,
Miskin umid qilar **Aliday** sherdan.
Lochinning qanoti bo'lmasin mayib,
Baloga sabr etgan **hazrati Ayub**,
Uch yuz oltmish o'tgan mardoni g'oyib,
Kam bandang maqsadin tilar muroyib.
Nimish kelsin kam bandaning qo'lidan,
Yo madad tilayman **Hazrat Alidan**,
Umid qildim **Ravsul A'zam validan**,
Oting rahmon, qaytar shayton yo'lidan.
Xoliqsan, karimsan, qahringdan qutkar,
Gunohkor bandaman, maqsadga yetkar,
Satqang bo'lay **huja Qobil, Akbar**,

Samarqand Valining chorbog'i derlar,
Shohizinda, Erdoniyor, payg'ambar,
Xo'jayi Zumrati, Xo'jayi Axror,
Bobo, yakka pirsiz, **Erxo'ja mozor**.
Bu so'zlarni aytib yig'lar Qorajon (142-bet),

Yigit piri **hazrat Dovud**,
Oq kirovka, oltin sovut
Kiymanlar nomard bo'lsin (219-bet).

Shohimardon, shohi **Kavsar** yo'l boshqar,
Alining shogirdi **Boboi Qambar**,
Ali bilan yo'ldosh **Moliki ajdar**,
Rahmat daryo toshar ul fayzi sahar (285-bet).

Dunyodan o'tdilar o'n ikki **Ahmad**,
Jonu dilman qildi xudoga xizmat,
Sadag'ang bo'layin **Rasul Muhammad**,
Otingdan aylanay **Qoziyul hojot**,
O'limning kechin ber, imonga quvvat (285-bet).

Hazrati No'g'oy, Er Baxshoyish yo madad,
Mazgiling **G'azira shayxi Xudoydod**,
Merganlarning piri **Jamshidu Ahmad**,
Rahm aylab, yor bo'ling nochor qullara.
Ummatim deng, yo **Muhammad Mustaf**
Birovlaring sheri dargoh, **Bosafo**
Sadag'ang bo'layin kanizi dargoh,
Mazgiling Mashhadda **imomi Rizo**

Parni ota madadkor, bir himmat guzar,
Bersa *Novka* bunda madad *Bog'mozor*,
Oqtosh tirg'ishlidir, biri *Yormozor*,
Hazrati Mirkulol, biridir *Qo'chqor*,
Avliyo, anbiyo bo'ling madadkor (285-bet).

Qodir oblo, o'zingdadir ixtiyor,
Shohizinda, er Doniyor, payg'ambar,
Xo'jai Zumrati, Xo'jai Ahror (285-bet).

Bobo yakka pirsiz, er Xo'jamozor,
Eshoni sulik *So'fi Olloyor*.
Manchil bilan *Xo'ja Ishoq*, bo'ling yor,
Qadamjoying deydi *Shahrisabz* shahar,
Sadag'ang bo'layin, *Xazrati Langar*,
Xo'ja Yusuf Hamadoniy, bo'ling yor,
Xo'ja Ahmad, Bashir, Xo'jayi Chorchinor (286-bet).

Ikki dunyoda rahbarim,
Mardi maydonim, yo *Ali*,
Izlaram sizdan shafolat,
Chobuk suvorim, yo *Ali*.
Yigit piri Shohimardon,
Madad bersa sheri *Yazdon* (288-bet).

3.4.3.NEKRONIMLAR

Nekronimlar deyilganda esa ushbu termin anglatuvchi ma'noga mos ravishda qabrlar, qabristonlar (mozorlar, mozoristonlar), shuningdek ba'zi diniy obyektlar

nomi (masjid, madrasa, honaqa kabilar)ni tushunish maqsadga muvofiqdir¹¹³. Dostonda Alpomish imon kishsisidir. Shu bois uni ishonch hech qachon tark etmaydi. Uning bu holatini tasvirlash uchun ijodkor diniy ob'ektlarni nomini o'rinli qo'llaydi.

Shohizinda, Erdoniyor, payg'ambar,
Xo'jayi Zumrati, Xo'jayi Axror,
Bobo, yakka pirsiz, ***Erxo'ja mozor***.
Bu so'zlarni aytib yig'lar Qorajon (142-bet).

Makkadin Mashriqqa kulli eranlar (100-bet).
Madinada o'ttiz uch ming sahoba (101-bet).

Toshkantning mulkinda er bobo ***Zangi***,
Tovba qildim, men gapirsam baland-pas (285-bet).

3-BOB YUZASIDAN XULOSALAR

“Alpomish” dostonining matnidagi toponimlarni o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Toponimlarda xalqning o'tmishi, urf-odatlar, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o'z aksini topgan bo'ladi. Shunga binoan dostonlar tilidagi toponimiya muayyan til lug'at boyligining muhim tarkibiy qismi, o'tmish voqyealari darakchisi sanaladi: ***Samarqand, Toshkand, Chin-Mochin, Hashtarxon (Astraxan), Boysun, Turkiston***.

2. Aholining o'tmishdagi etnik sostavi – qaysi urug`, qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmish sharoiti – qanday kasb- hunar bilan shug'ullanganligi, shuningdek joyning biron kishiga qarashlilikini ifodalovchi

¹¹³ Бу ҳақда қаранг: Авлиёкулов Я. Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (илмий-назарий анжуман материллари). – Қарши, ҚарДУ нашри, 2008, 15-18-бетлар.

oykonimlar dostonlar tilida o'rinli qo'llangan. Oykonomlar ba'zilarining nomi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Bu hodisa aholi punktlari jamiyatining ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy – madaniy hayoti, turmush darajasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, jamiyadagi ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy – madaniy o'zgarishlar ko'proq oykonimlarda aks etadi. Dostonlarda quyidagi oykonimlarni uchratdik: ***Qalmoq shahri, Toychi viloyatida, Qalmoq muzofotida, Qalmoq eli, Kashal eli.***

3. Jahon geografik nomlari tizimida etnooykonimlar katta o'rinni egallaydi. Urug', qabila, millat, xalq nomlari (etooykonimlar) asosida yaratilgan aholi punktlarining atoqli otlari etnooykonimlar tildagi ehg qadimgi toponimik qatlamlardan hisoblanadi. Ular uzoq tarixiy davrning yodgorligi bo'lib, ma'lum xalqning tarixini, etnik tarkibini o'rganishda, ularning tarqalish chegarasini ko'rsatishda va aniqlashda muhim manba sifatida g'oyat qimmatlidir. Lekin ularning katta qismi bugungi kunda ham jahondagi joy nomlari tarkibida yashab kelmoqda. Bu holarni dostondagi quyidagi etnooykonimlarda uchratdik: ***Qo'ng'iroq, Xo'ja Tohir, Qalmoq eli, Qatag'on*** kabilar.

4. Toponimlarning ma'lum bir qismi yerning geomorfologik xususiyatlari asosida nom olgan bo'ladi. Yer tuzilishi, sathi bilan bog'liq bo'lgan bunday toponimlar oronimlar deb ataladi. Oronimlar yerning rel'fi shakllarini o'zida aks ettiradi. Yer yuzasi shakllari har xil: tekislik, tog'lik, qir, tepalik, jarlik, soylik, chuqurliklardan iborat bo'lishi mumkin. Mana shu xususiyat toponimlarning nomlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Vaqt o'tishi bilan joyning rel'efi o'zgarishi mumkin, lekin o'sha rel'efni ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi. Chunonchi, “tepa”, “cho'l”, “tog'” ma'nosini saqlagan toponimlarning ayrimlari xozirgi vaqtda o'sha rel'ef xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin. Dostonlar tilida oronimlarning quyidagilari aniqlandi: ***Murodtepa, Chilbircho'l, Kashal g'ori, Qog'oton tog'i, Boboxon tog'i, Zil tog'i, Asqar tog'i, Olatov.***

5. Hidronim so'zi (yunoncha *hudor* – suv + *onoma* – atoqli ot) suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun'iy) obyektlarning atoqli oti, toponim turi ma'nolarini bildiradi. Respublikamiz hududida *daryo, soy, ariq, kanal, jilg'a, irmoq, buloq, sharshara, sardoba* kabi suv obyektlari juda keng tarqalgan. Dostonlar tilida ham suv ob'ektlarini bildiruvchi nomlar ko'p qo'llanilgan: ***Oyna ko'l, Amu, Bobur ko'l, Arpali ko'l, Ko'kqamish ko'li.***

6. Teonimlar doston tilidagi juda qadimiy lug'aviy birliklardan bo'lib, ularning paydo bo'lish davrlari insoniyatning o'ta ko'hna dunyodagi diniy qarashlari, animizm, totemizm, tabu, evfemizm singari tasavvurlari bilan bog'liqdir. Teonimlarning paydo bo'lishi ko'p xudolilik va bir xudolilik davrlarini o'z boshidan kechirgan.

Teonimiya doirasi nihoyatda kengayib, diniy mazmunli tabarruk, muqaddas deb bilinuvchi shaxslar, avliyolar, o'tmishda sig'inish obyekti bo'lgan real va noreal (xayoliy, mifologik) subyektlar, figuralar nomi ham kiritilmoqda va ular ko'pincha *agnonim* termini bilan yuritilmoqda. Dostonlar tilida ham agnonimlar qo'llanilgan: ***Xo'jai Zumrati, Xo'jai Ahror, Bobo yakka pir, er Xo'jamosor, So'fi Olloyor, Xo'ja Ishoq, Xazrati Langar, Xo'ja Yusuf Hamadoniy, Xo'ja Ahmad, Bashir, Xo'jayi Chorchinor.***

Ayrim ishlarda teonim va teonimiya doirasi yanada kengroq tushunilib, uning tarkibiga *nekronimlar* - diniy marosimlar bajariladigan joylar nomi (cherkovlar, monastirlar, masjidlar, hatto madrasalar), muqaddas deb bilinib sig'iniladigan obyektlar, narsalar atoqli otlari ham, shartli ravishda, toponimiya ko'lamiga hamda teonimiya mikroko'lamiga kiritilmoqda. Dostonlar tilida bunday nomlar ham keng qo'llanilgan: ***Shohizinda, Erdoniyor, Erxo'ja mozor, Makka, Mashriq, Madina, bobo Zangi.***

Bizningcha, teonim (teonimiya), agnonim (agnonimiya), nekronim (nekronimiya) tushunchalarini, ular doirasiga kiruvchi atoqli otlarni aniq farqlash, chegaralash maqsadga muvofiq bo'lardi.

UMUMIY XULOSALAR

Xullas, onomastik material har qanday rivojlangan til lug'at boyligining katta qismini tashkil etadi. Shunga ko'ra onomastik materialni xuddi tarix, geografiya, astronomiya kabi fanlar singari maxsus o'rganish talab qilinadi. Tilning onomastik birliklari, onomastik ko'lami va onomastik maydoni haqida umumiy ma'lumot, ularni ifodalovchi terminlar ma'nosi hamda ular haqidagi bilimlar majmuining jahon va o'zbek tilshunosligida ilmiy, nazariy, amaliy va uslubiy jihatlardan tadqiq etilishi, ya'ni ularni bir butun tizim sifatida o'rganilishi dolzarb muammolardan biridir.

Onomastikaning, shu jumladan, o'zbek onomastikasining tilshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya, arxeologiya, mifologiya, folklorshunoslik kabi sohalar bilan o'zaro chambarchas bog'liq.

O'zbek onomastikasi fani, uning tarkibiy qismlarining rivojlanishida H.Hasanov, B.Ahmedov, S.Qorayev, E.Begmatov, T.Enazarov, N.Husanov, T.Nafasov, T.Rahmatov, K.Marqayev, N.Uluqov, O.Begimov, N.Begaliyev, A.Turobov kabi olimlarning hissasi, toponimik lug'atlar, ularning turlarini ilmiy jihatdan asoslaganlar.

Dostonlar tilidagi onomastik birliklarning antroponim, toponim, gidronim, antropooykonim, oronim, etnooykonim, oykonim, teonim (teonimiya), agnonim (agnonimiya), nekronim (nekronimiya) kabi ko'rinishlari keng qo'llangan.

Bunday onomastik birliklarning dostonlar tilida qo'llanilishi tarixiy voqelik va shart – sharoit, shuningdek, milliy an'analarni o'zida aks ettiruvchi noyob manbalar jumlasiga kiradi. Ular paydo bo'lishi, rivoji hamda vazifaviy xususiyatlariga ko'ra o'z etnohududiy tarixi va dunyaqarashiga ega bo'lgan turli xalqlarning taqdiri, tili taraqqiyoti va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq.

Har bir til o'zining ko'p tarixiga o'z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Lekin u ma'lum darajada boshqa tillar ta'sirini ham boshdan kechiradi. Chunki har bir xalq boshqa xalqlardan ajralgan holda yashay

olmaydi. Xalqlar o`rtasida hamma vaqt iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bo`ladi. Bu aloqalar tilda ham o`z aksini topadi. Binobarin tilda, xususan uning onomasatik birliklarida hamma tarixiy davrlarga oid muhim ahamiyatga ega bo`lgan lingvistik faktlarni topish mumkin.

Har bir tildagi so`z yasalishi vositalari onomastik birliklarni yasashda ham ishtirok etadi. Ammo joy nomlari yasalish jihatidan tekshirilar ekan, avvalo, atoqli otlarning o`ziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini e`tiborga olmoq zarur. Leksemalar toponim yoki gidronimga aylangach, ular kategoriya jihatdan o`zgaradi, ma`lum funksional sferaga ega bo`ladi, semantik ko`lami qisqaradi, ya`ni ma`no maxsuslanishi sodir bo`ladi. Shular bilan bog`liq holda ularning formal – grammatik ko`rsatkichlari ham o`zgaradi.

So`zlarning etimologik tahlili bilan onomastik birliklarning etimologik tahlili jarayonlari bir – biridan farqlanadi. Masalan, toponimlar oldin lug`aviy asoslar holatlarida bo`lib, onomastik konversiya hamda toponimik derivatsiya jarayonlari tufayli toponimga ko`chgan. Binobarin, toponimlar va ular lug`aviy asoslarining tadqiqini nazariy jihatdan har tomonlama asoslab, ularning etimologik tahlilini amalga oshirish turli chalkashlik, shuningdek, yanglishishlarning oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.176 bet.
2. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Тошкент, 1999. -88 бет.
3. Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил). – Самарқанд, 1994. бет.
4. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. -92 бет.
5. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган қатлами. – Тошкент, 1999.
6. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. -64 бет.
7. Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 3-сон, 3-9-бетлар; 4-сон, 7-9-бетлар.
8. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. -208 бет.
9. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ўзбек ономастикасининг микроқўлами // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 3-сон, 17-21-бетлар; 2007, 5-сон, 33-39-бетлар; 2008, 1-сон, 55-60-бетлар.
10. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. – Наманган, 2008. -168 бет.
11. Бўриева Х.А. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент, 2007.
12. Каримов С., Бўриев С. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. -131 бет.

13. Қораев С. Топонимика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. -320 бет.
14. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. – Қарши: Насаф, 1993. -156 бет.
15. Нуриддинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2005.
16. Орипов Ў.А. Нурота тумани макро ва микропонимларининг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2003.
17. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. – Тошкент: Фан, 1997. -129 бет.
18. Охунов Н. Жой номлари таъбири. - Тошкент, Ўзбекистон, 1994. -86 бет.
19. Ражабов Ў.Х. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2009.
20. Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимияси. – Тошкент, 1998. -27 бет.
21. Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида). –Тошкент, 2008.
22. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. -192 бет.
23. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги. – Тошкент, 2008.
24. Ҳусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари (1-китоб). – Тошкент: Ёзувчи, 1996. -126 бет.
25. Ҳусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари (2-китоб). – Тошкент: Ёзувчи, 1997. -134 бет.
26. Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. – Тошкент, 2006. -56-бет.

27. Йўлдошев Б. “Ўзбекистон топонимияси” бўйича танланма фанни ўқитиш муаммолари // “Ўзбекистонда географиянинг долзарб муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2009, 180-182- бетлар.
28. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. – Тошкент, 1994.

II. Lug’atlar:

29. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. -104 бет.
30. Нафасов Т., Нафасова В. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати (мактаб ўқувчилари, коллеж ва лицей талабалари учун). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. -87 бет.
31. Турон қавмлари. Кичик энциклопедик луғат. Тузувчи: Зойир Зиётов. – Тошкент: Истиқлол, 2008. -232 бет.
32. Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: Зарафшон, 2003, 264 бет.
33. Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. – Самарқанд, 1997. -202 бет.
34. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. -240 бет.
35. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002. - 164 бет.

III. Badiiy adabiyot:

36. Алпомиш. – Тошкент: Шарқ, 1998. -400 бет.

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	3
Kirish.....	5
I Bob. O‘zbek xalq dostonlari va onomastik birliklar.....	9
1.1. Onomastik birliklarning o‘rganilishi.....	9
1.2. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari matnlarining o‘rganilishi.....	11
1.3. Onomastik birliklar va ularning til tizimida tutgan o‘rni.....	14
I Bob. Yuzasidan xulosalar.....	18
II Bob. “Alpomish” dostonidagi antroponimlarning funksional-semantik xususiyatlari.....	19
2.1. Antroponimlar haqida tushuncha va ularning o‘rganilishi.....	19
2.2. “Alpomish” dostonidagi antroponimlarning lug‘aviy tarkibi va funksional- semantik xususiyatlari.....	26
II Bob yuzasidan xulosalar.....	28
III Bob. “Alpomish” dostonidagi toponimlar, gidronim, teonimlarning funksional- semantik xususiyatlari.....	29
3.1. “Alpomish” dostonidagi toponimlarning funksional-semantik xususiyatlari.....	29
3.1.1. Oykonimlar.....	44
3.1.2. Etnooykonimlar.....	45
3.1.3. Antropooykonimlar.....	46

3.1.4. Oronimlar.....	47
3.2. “Alpomish” dostonidagi gidronimlarning funksional-semantik xususiyatlari.....	49
3.3. “Alpomish” dostonidagi teonimlarning funksional-semantik xususiyatlari	55
3.3.1. Teonimlar.....	58
3.3.2. Agnonimlar.....	61
3.3.3. Nekronimlar.....	64
III Bob yuzasidan xulosalar.....	65
Umumiy Xulosalar.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	70